

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG'URTA FAKULTETI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

NURBOYEV SHAHZODBEK NARZULLO O'G'LI

**“QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I VA UNI PROGNOZ QILISH
USULLARI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5230800-“Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

Sug'urta fakulteti

dekani v.v.b.

_____ i.f.n., dots.

H.Abdurahmanov

“ ____ ” _____ 2017 y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”

kafedrasi mudiri

_____ i.f.d., prof. A.Jo'rayev

“ ____ ” _____ 2017 y.

Bitiruvchi:

5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish” ta'lim
yo'nalishi 4-kurs talabasi Nurboyev Shahzodbek
Narzullo o'g'li _____

Ilmiy rahbar:

dots. M.Usmanova _____

TOSHKENT - 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INING NAZARIY JIHATLARI VA DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIDA TUTGAN O`RNI	7
1.1. Qo`shilgan qiymat solig`ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	7
1.2. Qo`shilgan qiymat solig`ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o`rni	11
1-bob bo`yicha xulosa.....	17
2-BOB. QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INI BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINING VA PROGNOZINI TASHKIL QILISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (QARSHI TUMAN DSI MA`LUMOTLARI ASOSIDA).....	18
2.1 Qo`shilgan qiymat solig`ini hisoblash va budjetga to`lash taribining amaldagi holati tahlili.....	18
2.2 Qo`shilgan qiymat solig`ini prognoz qilish usullari va QQS bo`yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning xarakterli jihatlari.....	29
2.3 Qo`shilgan qiymat solig`i oborotini aniqlash va uning o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozashtirish.....	33
2-bob bo`yicha xulosa.....	51
3-BOB. QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`I PROGNOZINI TASHKIL QILISHNI VA BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI.....	53
3.1 Qo`shilgan qiymat solig`i prognozini tashkil qilishni takomillashtirish.....	53
3.2 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qo`shilgan qiymat solig`ini budjetga undirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo`llari.....	58
3-bob bo`yicha xulosa.....	
XULOSAVA TAKLIFLAR.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillaridan oqilona foydalangan holda, xalqimizning hayot ehtiyojlarini ta'minlash, shu bilan birga davlatimiz o'z zimmasiga olgan ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy manbasini mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, Respublikamizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar, ularni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotning barqaror ravishda o'sishini ta'minlash, shu bilan birga, soliq siyosatini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu maqsadda, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini yanada erkinlashtirish yo'nalishlarining belgilanishi, jumladan, aholining ijtimoiy qo'llab quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay soliq muhitini yaratish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir. Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagilarga to'xtalib o'tdilar: "Soliq-budjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hajmi, yirik investitsiya loyihalari va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirish – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi"¹. Shulardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan 2015-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o'sishi 8 foizdan tushmagani aholi farovonligini oshib borayotganini bildiradi. Bunda mamlakatimiz soliq siyosatidagi olib borilayotgan ishlar, kiritilayotgan o'zgarishlarning o'rnini bor. Bu borada davlatimizning Birinchi rahbari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

I.Karimovning quyidagi fikrlarini ta'kidlash lozim: "2015-yilda iqtisodiyotimizni yuqori sur'atlar bilan barqaror rivojlantirishga erishganimiz aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi. Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar 21,9 foizga, aholi jon boshiga jami real daromadlar esa 9,6 foizga oshdi. Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2010-yildagi 47,1 foiz o'rniga 52 foizga o'sgani va bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori ekanini alohida ta'kidlashni istardim."².

Qo'shilgan qiymat solig'i mamlakatimiz soliq tizimida joriy qilingan soliqqa tortishning eng murakkab, ko'p qirrali va nisbatan kam takomillashgan qismidir. Bu soliq tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatilganda yangi hosil qilingan qiymatdan kelib chiqib budget daromadiga o'tkazishning bir shaklidir. Shu sababli, qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga bog'liq holda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davlatning umumsoliq siyosatida muhim o'rin egallaydi. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati budget daromadlaridagi tushumini ta'minlash orqali xalq xo'jaligi manfaatlarini qondirishga, ko'proq mablag'larni jalb ettirishi orqali namoyon bo'lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya'ni asosiy iste'molchilarning to'lov qobiliyatlarini oshishida o'z ifodasini topadi. Bu esa qo'shilgan qiymat solig'i obyektlarini qisqartirishida namoyon bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, rivojlangan xorijiy davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'idan foydalanish tajribalarini o'rganish, ularni mamlakatimiz iqtisodiy shart-sharoitlariga moslagan holda qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqish, shuningdek undan amaliyotda foydalanish natijalarida kerakli xulosalar chiqarish va uni takomillashtirish zarur. Yuqorida

²Karimov I.A, Bosh maqsadimiz - iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir. –T.: "O'zbekiston",2016 - 88b

keltirilgan fikrlarning keng mazmuni tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishi obykti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining obykti Respublikamiz hamda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani mahalliy budjetida qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari va xo'jalik yurituvchi subyektlardan budjetga undirish jarayoni hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari va budjetga undirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari va budjetga undirish tartibini amaliy materiallarga tayangan holda tahlil etish asosida mazkur soliqning hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- qo'shilgan qiymat solig'ini egri soliq sifatida iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini ochib berish hamda mamlakatimizda bozor munosabatlariga o'tish jarayonida uning asosiy vazifasini aniqlash;

- qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini izohlash;

- qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budjetga to'lash taribining amaldagi holatini tahlil qilish;

- qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari va QQS bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning xarakterli jihatlarini yoritish;

- qo'shilgan qiymat solig'i oborotini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozashtirish kabilarni yoritish;

- qo'shilgan qiymat solig'i prognozini tashkil qilishni takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqish;

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga undirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, ish natijalaridan qo'shilgan qiymat solig'i va uni prognoz qilish usullarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlarda foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishning xulosalari va amaliy takliflaridan qo'shilgan qiymat solig'i va uni prognoz qilish usullarini takomillashtirish hamda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmalarini yangilashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, yettita paragrafni qamrab olgan uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqot obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari hamda nazariy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan.

Ishning birinchi bobida qo'shilgan qo'shilgan qiymat solig'ining nazariy jihatlari va mohiyati, uning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari va QQS bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning xarakterli jihatlari, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari, soliq solish obyekti hamda bazasi shu bilan birga soliqni hisoblash va budjetga undirish tartibining amaldagi holati Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumani misolida tahlil qilingan.

Ishning uchinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'i prognozini tashkil qilishni va budjetga undirish tartibini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida mavzuni tadqiq qilish natijasida chiqarilgan xulosalar bayon qilinib, taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi 73 betdan iborat bo'lib, unda jami 22 ta jadval va 6 ta rasm keltirilgan.

1-BOB. QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INING NAZARIY JIHATLARI VA DAVLAT BUDJETI DAROMADLARIDA TUTGAN O`RNI

1.1. Qo`shilgan qiymat solig`ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Soliqlarni tasniflashga doir qarashlarning ilk shakllaridan biri ularni to`g`ri va egri soliqlar guruhiga ajratilishidir. Yevropa sivilizatsiyasi rivojlanishining boshlang`ich davrida to`g`ri va egri soliqlarning joriy qilinishi jamiyatning siyosiy rivojlanishiga bog`liq bo`lgan. Mulk ancha tekis taqsimlanganligi oqibatida hali demokratik tartiblar saqlanib qolgan o`rta asr shaharlarida soliq tizimlari asosan to`g`ri soliqlarga asoslanib tuzilgan. Egri soliqlar ancha og`ir va xalq ahvoliga salbiy ta`sir qiladi deb hisoblangan, chunki ular tovar qiymatini oshiradi. Aristokratiya xalq qarshiligini sindirganidan so`ng egri soliqlarning qo`llanilish ustunligi o`rnatildi va u asosan birinchi zarur bo`lgan tovarlarga nisbatan qo`llanildi (masalan, tuzga soliq). Shunday qilib, birinchi yondashuvga asosan egri soliqlar soliq to`lovchilar uchun zararli hisoblanadi, chunki ular xalq ahvolini yomonlashtiradi.

O`rta asrlar oxirlarida paydo bo`lgan ushbu nazariyaga ikkinchi yondashuv esa, aksincha egri soliqlarni joriy qilinishi zarurligini asoslab bergan. Egri soliqlar yordamida soliqqa tortishning teng sharoitlarini ta`minlash taklif etilgan. Boy tabaqa vakillari soliqlar bo`yicha turli xil imtiyozlarga ega bo`lganligi sababli ular oladigan daromadlar soliqqa tortilmay qoladi. Shuning uchun, egri soliqqa tortish tarafdorlari soliqlarni tovar narxiga ustama shaklida belgilanishini yoqlab chiqadilar.

A.Smit va D.Rikardolar ham egri soliqqa tortish tarafdorlari hisoblanishgan, ular uni ixtiyoriylik g`oyasi orqali asoslab berishdi. Bu g`oya egri soliqlar to`g`ri soliqlarga qaraganda yengilroq degan tasdiqdan kelib chiqadi, chunki ulardan egri soliqlarga tovarlarni harid qilmasdan oson qochish mumkin degan xulosani beradi³.

³A.Jo`rayev, O.Meliyev, G`.Safarov. Soliq nazariyasi. O`quv qo`llanma. TMI, 2004. 51-bet

Mana shunday soliqlardan biri - qo'shilgan qiymatsolig'i bo'lib, bu soliq tovarlar, ishlar va xizmatlar ustiga qo'yilganligi uchun egri soliqlar qatoriga kiradi. Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xomashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan 1954 yilda taklif etilgan. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'I haqiqatda 1958 yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini «Yevropacha» soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablaridan biri qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo'lgan Fransiyada joriy etildi, 1977 yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi, yana bir sababi qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni

shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi⁴. O'sha davrda joriy qilingan bu soliq turi hozirgacha dunyoning ko'plab mamlakatlarida amal qilib, asosiy iste'mol solig'i hisoblanib kelinmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 35 dan ziyod davlatlarda joriy etilib, undirilib kelinmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'i Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo barcha mamlakatlarda 1992-yildan boshlab qo'llaniladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan barcha mamlakatlar kabi O'zbekistonda ham qo'shilgan qiymat solig'i 1992-yildan amalda qo'llanilib kelinadi. Hozirgi vaqtda respublikamiz soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) umumdavlat solig'i sifatida davlat budjetini shakllantiruvchi manba bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasining ortib borayotganligini amalda ko'rishimiz mumkin. Ayni shu paytda davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni budjetga jalb qilishning asosiy va kelajakdagi yagona yo'li bo'lishi mumkin bo'lgan soliqlaridir. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi bizning mamlakatimizda ham soliqlar davlatimizning mudofaa qudratini, ichki va tashqi xavfsizligi, huquqni muhofaza qiluvchi tizimlarini talab darajasida tutib turishning, fuqarolarimiz huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamni qo'llab quvvatlashdek vazifalarini bajarishning asosiy manbai, iqtisodiy rivojlantirish asoslaridan biri bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarishning asosiy omilidir.

Barcha bilvosita soliqlar kabi qo'shilgan qiymat solig'i ham asosan soliqlarning fiskal funksiyasini bajaradi, uning joriy qilinishidan asosiy maqsad davlat budjetini mablag' bilan bilan to'ldirish bilan bog'liq. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq tushumlarini narx-navoning o'sishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lab turgani uchun u budjet mablag'larini inflatsiya bo'lishidan saqlab qoluvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Bunday holatda soliqqa solish obyekti bo'lib tovarning yoki xizmatning sotish narxi xizmat qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solish tizimida har bir

⁴ Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009.

ishlab chiqaruvchi (sotib oluvchi) o'zining haridori (buyurtmachisi) dan qonunda ko'zda tutilgan soliq summasini undiradi va avval xomashyo sotib olishda soliqning to'langan qismi mavjud bo'lsa, uni chegirib tashlab, qolgan qismini budjetga to'laydi. Qo'shilgan qiymat solig'i real soliqlar turkumiga kiradi. Soliqni to'lash oldi sotdi jarayonida kelib chiqadi va soliqqa tortish subyektining moliyaviy holatini hisobga olmaydi.

O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ining qo'llanilishini asosiy sababi soliq solish bo'yicha dunyo hamjamiyatining bu boradagi tajribasi bo'ldi. Rivojlangan davlatlarning tajribasida bilvosita soliqlar rivojlanib borib, yagona qo'llaniladigan soliqqa, ya'ni davlatlarda soliq bir tekisda taqsimlanadigan qo'shilgan qiymat solig'iga aylanishini ko'rsatdi, shu bilan bir vaqtning o'zida, biron bir tovarlar guruhini sotilishiga xalaqit qilmaydi va xalq xo'jaligidagi moliya taqsimlanishini o'zgartirmaydi⁵. U iqtisodiy qiymat kategoriyasi hisoblanib, ma'lum bir iqtisodiy munosabatni o'zida ifoda etadi. Bunday iqtisodiy munosabat qiymat harakatida aks etadi. Avvalo qo'shilgan qiymat solig'i bu butun bir mahsulotning ma'lum qismi bo'lib hisoblanadi. Uning iqtisodiy mohiyati o'z ta'sir doirasi bilan belgilanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ining hosil bo'lishi va ishlatilishining o'ziga xos mexanizmi (to'lashning shart ekanligi, to'lov muddatlari va mulkdorlarning qayd qilinishi) unga mablag'larni jamlashning soliq usuliga oid bo'lgan belgilarni kasb etadi.

Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'i barcha soliq turlari ichida yetakchi o'rin egallashi bilan bir qatorda barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni harakatga keltirib turishi bilan ham ajralib turadi.

QQS bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchi bosqichga o'tishining mahsuli bo'lib hisoblanmaydi. Qoshilgan qiymat solig'i boshqa nom bilan atalib kelinishi mumkin lekin o'z tabiatini o'zgartira olmaydi. Oldin amalda bo'lgan oborot solig'i markazlashgan sof daromad sifatida qaralib, qat'iy tartibda budjetga o'tkazilgan va bu xo'jalikda ortiqcha daromad bo'lishiga yo'l

⁵Zavalashina I.A. soliqlar:nazariya va amaliyot. – T.:iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.

qoymasdi. Bu soliqning iqtisodiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, budjetni shakllantirish manbai hisoblangan. Qo'shilgan qiymat solig'i oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi⁶.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan oraliq tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati orasidagi farqdan iborat bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash uchun asos sifatida qaraladi. Ushbu reja orqali qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, mazmuni hamda egri soliqlar bo'yicha olimlarning turli xil qarashlaridan kelib chiqib, mustahkamroq bilim va tushunchaga ega bo'lish mumkin. Endi navbatdagi rejamiz orqali egri soliqlar hususan qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi o'rnini qandayligini qisqacha ko'rib chiqamiz.

1.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rnini

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlatning yangi vazifalari paydo bo'la boshladi. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi bizning mamlakatimizda ham soliqlar davlatimizning mudofaa qudratini, ichki va tashqi xavfsizligi, huquqni muhofaza qiluvchi tizimlarini talab darajasida tutib turishning, fuqarolarimiz huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamni qo'llab quvvatlashdek vazifalarini bajarishning asosiy manbai, iqtisodiy rivojlantirish asoslaridan biri bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarishning asosiy omilidir. Davlat kuchli ijtimoiy chora tadbirlarni amalga oshirish, fuqarolar osoyishtaligini ta'minlash

⁶ Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: "Sharq", 2009

maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini mustaxkamlashga va boshqa maqsadlarda mablag'larni sarflaydi. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba hisoblangan soliqlarni, jumladan qo'shilgan qiymat solig'ini obektiv zarur qilib qo'yadi. Budjetni muvofiqlashtirish muammolari bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisod uchun davlat tomonidan bozor iqtisodini tartibaga solishda juda muhimdir. Ushbu muammolar orasida soliqlar yordamida yordamida qoplanib turiladigan budjetning daromad qismini shakllantirish alohida o'ringa ega. Bunda ko'pgina mamlakatlarda asosiy o'rin bilvosita soliqlarga qaratiladi. Xalqaro amaliyotga asosan bu soliqlarga iste'moldan soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, savdo va oborotdan olinadigan soliq), aksiz va bojxona to'lovlari kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda iqtisodiy o'sish darjasiga bog'liq holda soliqlarning bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linishi o'rtasida aniq bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Davlatning va undagi aholining iqtisodiy rivojlanishining pastligi asosan har bir aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM bilan o'lchanadi hamda bu hol jismoniy va yuridik shaxslar daromadlaridan olinadigan to'g'ri soliqlar hajmining pastligiga olib keladi. Shu sabali ko'pgina endigina rivojlanayotgan davlatlarda soliqqa tortishda bilvosita soliqlar asosiy o'rinni egallaydi. Rivojlanishning eng past ko'rsatkichlariga ega bo'lgan davlatlarda bilvosita soliqlarning barcha soliqlar tushumi orasidagi o'rni 68% ni, to'g'ri soliqlar esa atigi 32% ni tashkil qiladi. Rivojlangan davlatlarda esa aksincha.

Qo'shilgan qiymat solig'i ko'pgina mamlakatlarda davlat daromadlarining 12 - 30% gacha qismini ta'minlab beradi va bu YaMM ning 5-10 % ga tengdir. Ushbu soliq soliq tushumlari orasida ishonarli manbadir va bu ayniqsa daromadlari (foyda)cheklangan mamlakatlar uchun tegishlidir.

Hozirgi vaqtda qo'shilgan qiymat solig'i Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat budjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq

tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi⁷.

O'zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar davlat budjeti daromadlarining deyarli yarmini tashkil qiladi. Bundan tashqari, ushbu soliqlar narxning asosiy qismini tashkil qila turib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va iste'molga hamda xalqaro savdoda yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy imkoniyatlari va turli mamlakatlarda ularning ishlatilishining tahlili O'zbekiston uchun katta ahamiyatga egadir⁸. Qo'shilgan qiymat solig'i ham barcha bilvosita soliqlar kabi asosan soliqlarning fiskal funksiyasini bajaradi. Bu soliqning joriy qilinishidan asosiy maqsad ham aynan davlat budjetini mablag' bilan ta'minlash bilan bo'g'liq. Qo'shilgan qiymat solig'i soliq tushumlarini narx-navoning o'sishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lab turganligi uchun davlat budjeti mablag'larini inflatsiya bo'lib ketishidan saqlab qoluvchi vositalardan biridir. Tovar yoki xizmatning sotish bahosi soliqqa tortish uchun obyekt bo'lib xizmat qiladi. Har bir ishlab chiqaruvchi (sotib oluvchi) o'zining xaridori (buyurtmachisi)dan qonunda ko'zda tutilgan belgilangan miqdordagi soliq summasini undiradi va uni avval xomashyo sotib olishda soliqning to'langan qismi mavjud bo'lsa, uni chegirib tashlab, qolgan summani davlat budjetiga o'tkazib beradi. Qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilib boshlangandan boshlab to hozirgi kunga qadar bo'lgan vaqt ichida O'zbekiston davlat budjetining asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanib kelmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tayotgan ko'pchilik davlatlarda egri soliqlar uzoq vaqt fiskal funksiyani bajaradi. Rivojlangan davlatlar soliq amaliyotiga e'tibor bersak, budjet daromadlarida egri soliqlar salmog'i kam bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda budjet daromadlari tarkibida egri soliqlar birinchi o'rinda tursa,

⁷ Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: "Sharq", 2009. 125-bet

⁸ A.Yuldashev. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya" 2007.60-bet

rivojlangan davlatlarda budget daromadlari tarkibida esa to'g'ri soliqlar birinchi o'rinni egallaydi⁹. Bizning respublikamiz rivojlanayotgan davlat hisoblanganligi sabab, egri soliqlar davlat budgetida asosiy o'rinni egallab turibdi. Qo'shilgan qiymat solig'idan tushumlar tahlilidan oldin egri soliqlarning budget daromadlaridagi ulushini tahlil qilamiz.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti
daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi¹⁰

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil	
	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda
Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz - jami	26 223,2	100	31 730,5	100	36 492,70	100	40 505,8	100
To'g'ri soliqlar	6 353,70	24,2	7 433,00	23,4	8 798,50	24,1	9338,5	23,0
Egri soliqlar	13 398,60	51,1	16 852,30	53,1	19 193,80	52,6	22298,1	55,1
Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	3 888,20	14,8	4 311,50	13,6	4 816,10	13,2	5806,5	14,3
Boshqa daromadlar	2 582,70	9,9	1842,4	6,1	2224,8	6,1	2672,5	6,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, budget daromadlarini shakllantirishda egri soliqlarning o'rni muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu turdagi soliqlar 2013- yilda 51.1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda 55.1 foizni tashkil etmoqda. To'g'ri soliqlar bo'yicha tushumlar esa 2013-yilda 24.2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 23.0 foizni tashkil etgan, 2013-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich 1.2 foizli punktga kamdir. Bu soliqlar bo'yicha tushumlar deyarli o'zgarish sezilmagan. Budget daromadlarida resurs soliqlari ham alohida ahamiyatga egadir. Mol-mulk va resurs soliqlari bo'yicha tushumlar 2013- ilda 14,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda bu ko'rsatkich 14,3 foizni tashkil etgan. Budget-soliq siyosati keyingi yillarda davlat budjeti

⁹ Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.:“Юрайт”, 2012, –899с

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi.

daromadlar qismini shakllantirishda asosan soliqlarga tayanilishi ko'zda tutilmoqda. Shu sababdan davlat budjeti daromadlar qismini shakllantirishda boshqa daromadlarning ham alohida o'unga ega bo'lmoqda. Agarda 2013- yilda boshqa daromadlar budjet daromadlarining 9.9 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib ularning ulushi 6.6 foizga teng bo'lgan.

Endi quyidagi jadval orqali egri soliqlarning har bir turi bo'yicha qanday salmoqqa ega ekanligini ko'rib chiqamiz.

2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarida
egri soliqlar bo'yicha tushum dinamikasi¹¹**


Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil	
	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda	mlrd.so'm	foizda
Egri soliqlar	13 398,60	100	16 852,30	100	19 193,80	100	22298,1	100
Qo'shilgan qiymat solig'i	7 552,50	56,4	9 476,10	56,2	10 850,90	56,5	12 505	56,0
Aksiz solig'i	4 168,20	31,1	4 941,10	29,3	5 618,50	29,3	6480	29,0
Bojxona boji	1 007,40	7,5	1 350,00	8	1 481,50	7,7	1717,4	7,7
Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	670,5	5	1 085,10	6,5	1 242,90	6,5	1595,7	7,1

Yuqoridagi jadvalda egri soliqlar turlarining yillar bo'yicha soliq tushumlaridagi ulushlari ko'rsatilgan. Unga ko'ra jami egri soliqlardan tushumlarning $\frac{3}{4}$ qismdan ortig'i qo'shilgan qiymat va aksiz soliqlariga to'g'ri kelgan. Aynan qo'shilgan qiymat solig'ining o'zi egri soliqlardagi salmog'i 2013-yilda 56.4 foiz, 2014-yilda 56.2 foiz, 2015-yilda esa 56.5 foizni, 2016 yilda

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlariga ilovalar asosida tayyorlandi

56,0 foizni tashkil qilib, oxirgi 4 yil ichida undan tushayotgan tushumda sezilarli darjada o'zgarish kuzatilmagan. Boshqa soliq turlaridan tushumlarda ham o'zgarishlar katta emas. Shu jadval orqali ham qo'shilgan qiymat solig'ining budjet daromadlaridagi o'rnini qay darajada ekanligini sezishimiz mumkin.

Quyida keltiriladigan rasmda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining uch yillik tushumi jami solikli daromaddagi salmog'i qay darajada bo'lganligini foizlarda ifodalangan bolib, unga ko'ra



1-rasm. Qarshi tumani bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining yillar bo'yicha tushumi¹²

2013-yilda jami solikli daromadlarning 40.8 foizini, 2014-yilda 27.9 foizni, 2015-yilda esa 33.4 foizni tashkil etgan bo'lib, turli yillarda tushumlarning turlichaligi ko'rinib turibti.

Demak, egri soliqlarni tashkil qilinganidan maqsad davlat budjetini mablag' bilan ta'minlash. Soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat budjetini shakllantiruvchi asosiy manbaa bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

Ushbu reja orqali biz, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida egri soliq hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi bo'yicha rasm va jadvallar orqali ma'lumotga ega bo'ldik. Rasm va jadval

¹²Qarshi tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

ma'lumotlari yuzasidan shuni xulosa qilish mumkinki, davlat budjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning ahamiyati katta ekan. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ushbu daromadlarning asosiy salmog'ini egallagan.

1-bob bo'yicha xulosa

Ilmiy ishimizning nazariy jihatlarini o'rganish natijasida, egri soliqlarning, xususan qo'shilgan qiymat solig'i, uning mohiyati, qanday sabab bilan vujudga kelgani va uning davlat budjeti daromadlaridagi o'rnini qay darjada ekanligini ko'rdik. Birinchi reja orqali qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, mazmuni hamda egri soliqlar bo'yicha olimlarning turli xil qarashlaridan kelib chiqib, mustahkamroq bilim va tushunchaga ega bo'ldik.

Egri soliqlarning davlat budjetidagi solmog'ini tahlil qilish jarayonida soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat budjetini shakllantiruvchi asosiy manbaa ekanligini, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rish mumkin. Ikkinchi reja orqali biz, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarida egri soliq hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi bo'yicha diagramma va jadvallar orqali ma'lumotga ega bo'ldik. Rasm va jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, davlat budjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning ahamiyati katta ekan. Qo'shilgan qiymat solig'i esa ushbu daromadlarning asosiy salmog'ini egallagan. Umumdavlat soliqlari sifatida budjeti daromadlarini shakllantiruvchi asosiy manbaa bo'lib, ushbu soliqlardan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin.


Demak, egri soliqlarni tashkil qilinganidan maqsad davlat budjetini mablag' bilan ta'minlash. Soliq tizimi tarkibida qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliqlari sifatida davlat budjetini shakllantiruvchi asosiy manbaa bo'lib, ushbu soliq turidan foydalanish darajasi o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin.

2-BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINING VA PROGNOZINI TASHKIL QILISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (QARSHI TUMAN DSI MA'LUMOTLARI ASOSIDA)

2.1. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibining amaldagi holati tahlili

Qo'shilgan qiymat solig'i respublikamizda 1992-yildan boshlab qo'llanilib kelinayotgan bo'lib, 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar ro'g'risida"gi qonun va unga asoslanib 1992-yil 30-martda yaratilgan "Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma ushbu soliqni huquqiy tartibga soluvchi hujjat hisoblangan.

Hozirgi kunda qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 197-228 moddalari bilan undiriladi va tartibga solinadi. Soliq kodeksining 197-moddasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari quyidagi chizmada aks ettirilgan:



2-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining guruhlanishi¹³

Yuqorida keltirilgan to'lovchilar soliqni huquqiy to'lovchisi hisoblanadi. Soliqni o'z vaqtida va to'liq budjetga o'tkazishni ulardan talab qilinadi. Lekin haqiqatda

¹³Amaldagi Soliq Kodeksi asosida muallif tomonidan tuzildi.

mazkur to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini ishlab chiqarilgan mahsulot, bajargan ish, ko'rsatilgan xizmatlarining ustiga qo'yib yuborishadi natijada soliqning haqiqiy to'lovchisi mahsulotni sotib olgan, ish va xizmatlardan foydalangan korxona va tashkilotlardir. Oxirgi qiymat chakana yo'l bilan aholiga yetkaziladi va eng so'nggi iste'molchi soliqning haqiqiy to'lovchisi bo'lib qoladi.

Amaldagi Soliq Kodeksiga ko'ra quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari, shuningdek O'zbekiston norezidentlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq solinadigan oborotlardan tashqari, agar ularni realizatsiya qilish joyi O'zbekiston hududi bo'lsa hamda respublika hududiga tovarlar import qilish holatlari bundan mustasno;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar, agar ular ixtiyoriy asosda QQS to'lovchilar bo'lmasa.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin. Ixtiyoriy asosda QQS to'lashga o'tish to'g'risidagi bildirish xati korxona soliq hisobiga olingan joyidagi soliq inspeksiyasiga ikki nusxada taqdim etiladi. Soliq organi bildirish xati qabul qilib olinganligi to'g'risida belgi qo'ygandan so'ng, bildirish xatining bir susxasini keyingi kundan kechiktirmagan holda ariza beruvchiga qaytariladi. Bunda ixtiyoriy asosda QQS to'lovchi mikrofirmalar va korxonalarga QQS to'lash tartibi, shuningdek QQS to'lovchilar uchun ko'zda tutilgan barcha imtiyozlar joriy qilinadi. YaST ixtiyoriy asosda QQS to'lashga o'tganda ular Soliq Kodeksining

218-moddasida belgilangan shartlar bajarilgan taqdirda, ilgari QQS bilan harid qilingan (shu jumladan import bo'yicha) moddiy resurslar qoldiqlari bo'yicha QQS summasini hisobga olish huquqiga ega bo'ladilar. Bunda korxona QQS

to'lashga o'tiladigan oyning birinchi kunidagi tovar-moddiy boyliklar qoldiqlari inventarizatsiyasini o'tkazishi va ular bo'yicha QQS summasini hisobga olishi lozim. YaST to'lovchilari, navbatdagi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmagan holda, soliq hisobga olingan joy bo'yicha soliq organiga taqdim qilinadigan yozma habar asosida, faqat navbatdagi soliq davri boshidan (keyingi kalendar yilining 1-yanvaridan) boshlab QQS to'lashdan voz kechishi mumkin. QQS to'lashdan voz kechilgan taqdirda ham, moddiy boyliklar qoldiqlarini inventarizatsiya qilish va mazkur tovar moddiy boyliklar qiymatiga qo'shiladigan, ilgari hisobga kiritilgan QQS summasini tuzatish amalga oshiriladi¹².

Quyida keltiriladigan jadval Qarshi tuman DSI ma'lumotlari asosida tuzilgan bo'lib, unda oxirgi 3 yildagi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining soni keltirilgan.

3-jadval

**Qarshi tuman bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari
to'g'risida ma'lumot¹⁴**

Soliq to'lovchilari	2014-yil yanvar holatiga ko'ra		2015-yil yanvar holatiga ko'ra		2016-yil yanvar holatiga ko'ra	
	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda
Tumanda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni	341	100	320	100	325	100
Shundan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi yuridik shaxslar	23	6.7	23	7.1	23	7.0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Qarshi tuman bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining soni oxirgi 3 yil ichida deyarli o'zgarmagan. Lekin ularni jami faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslarga nisbatan ulushi har xil, 2014-yilda jamiga nisbatan 6.7 foizni, 2015-yilda 7.1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 7.0 foizni tashkil qilgan. Bunga

¹⁴ Qarshi tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.


sabab qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining sonini kamayganida emas, balki shaharda faoliyat yuritayotgan yurudik shaxslar sonini oshganida deb hisoblashimiz mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i bilvosita ko'p bosqichli soliq bo'ladi, ishlab chiqarish va taqsimlash siklidan boshlanib, iste'molchiga sotilishigacha bo'lgan har bir aktdan undiriladi. Uning obyekti bo'lib, ushbu jarayonlarda qo'shilgan qiymat hisoblanadi, ya'ni mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi tomonidan yangidan mahsulot ishlab chiqarish uchun yoki ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun sotib olingan xomashyo, materiallar yoki tovar va mahsulotlar ustiga qo'shilgan qiymatdir. Ushbu soliq tovarlar, ishlar va xizmatlar narxining barcha elementlarini cheklaydi hamda ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga undaydi.

Jahon amaliyotida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash deyarli bir xil tizimga ega. Soliq to'lovchi sotilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlardan olingan soliq bilan ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlarni bajarish uchun to'langan soliq summasi orasidagi farqni budjetga to'laydi. Agar xaridorlardan olingan soliq summasidan chegirib tashlanadigan mahsulot, ishlar va xizmatlar yetkazib beruvchiga to'langan soliq summasi olingan soliq summasidan ortiq bo'lsa, u holda manfiy qoldiq keyingi davr uchun soliq to'lovchiga o'tkaziladi yoki, qaytarib beriladi¹⁵.

Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekiston Respublikasida 1992-yil ilk joriy qilingan vaqtda uning stavkasi 30foizni tashkil qilgan bo'lsa, shu bugunga qadar bir necha marotaba o'zgartirilgan. Quyida keltirilgan 1-diagrammada ham shuni ko'rishimiz mumkinki, 1996-yil 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, 1999-yildan hozirgi kunga qadar respublikamizda barqaror 20 foizli stavka qo'llanilib kelinmoqda.

¹⁵A.Yuldashev. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya" 2007.60-bet




3-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi¹⁶

1997-yil 18 foizli stavka bilan birga ayrim oziq ovqat mahsulotlari turlariga (non, go'sht, sut va sut mahsulotlari) kamaytirilgan 10 foizli stavka ham belgilab qo'yilgan. 1999-yilda esa respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo'llanilgan. Soliq kodeksiga ko'ra 2000-yildan shu kunga qadar respublikamizda 20 foizli stavka bilan "0" foizli stavka qo'llanilaib kelinyapti. "0"foizli stavka deganda korxonaning ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni "nol"ga teng degani¹⁷.

Boshqa soliq turlariga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ida ko'proq imtiyozlar nazarda tutilgan bo'lib, ular to'rt guruhga ajratilgan:

¹⁶Meyoriy xujjatlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁷Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: "Sharq", 2009.



4-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning guruhlanishi¹⁸.

Soliq kodeksining 224-moddasiga muvofiq Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan Soliq kodeksning 218-moddasiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovarlarini import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

*qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa —yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

¹⁸Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq muallif tomonidan tayyorlandi.

*mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob - kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvara-q-fakturalar reestrlarini taqdim etadi.



5-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash tartibi¹⁹

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash mexanizmi xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. QQS bo'yicha yagona stavkaning qabul qilinishi hisob va

¹⁹Amaldagi Soliq kodeksiga asosan muallif tomonidan tuzildi.

hisob-kitob jarayonlarini ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari, hisobvaraqa fakturalar tizimining joriy etilishi soliq hisobi va hisoblab chiqarilishi ustidan nazoratga avtomatik tus berdi. Har yili unga doir bo'nak to'lovlari to'lash muddatlari miqdori qisqarib bormoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob-kitob va budjetga tushadigan tushumi bo'yicha Qarshi tumanida faoliyat yuritayotgan "SSS" AJ misolida ko'rib chiqamiz. Shu maqsadda birinchi navbatda ushbu yuridik shaxsning Davlat soliq inspeksiyasiga topshirgan hisobot ma'lumotlaridan foydalanamiz.

4-jadval


"SSS" AJ ning 2016-yil yanvar oyi uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi (so'm hisobida)²⁰

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)summasi	010	122 128 962,74
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushumjoriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi	020	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	122 128 962,74
Aholiga sotilgan tabiiy gaz bo'yicha oborotga to'g'ri keladigan va hisobga olinadigan QQS summasi	0301	0,00
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni)realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi	040	314 257 650,60
Aholiga sotilgan tabiiy gaz bo'yicha oborotga hisoblangan QQS summasi	0401	
Budjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	192 128 687,86
"O'ztransngaz" AK ixtiyorida qoladigan aholiga sotilgan tabiiy gaz bo'yicha QQS summasi	0501	0,00

Qarshi tumanida faoliyat yuritayotgan "SSS" AJ tumandagi budjetga QQS bo'yicha tushum tushiradigan yirik soliq to'lovchilardan biri hisoblanishini 1-rasm orqali ya'ni 2015-yilgi budjetga QQS tushumida jami tushumga nisbatan 11% ni

²⁰"SSS" AJ ning hisobotidan olindi.

tashkil qilib, barcha to'lovchilar ichida uchinchi o'rinda turganini ko'rgan edik. 2016-yil yanvar oyi hisoboti ma'lumotlariga ko'ra hisobga olingan jami QQS summasi 122128962,74 so'mni tashkil etgan bo'lsa, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti 314 257 650,60 so'mni tashkil etib natijada budjetga to'lanadigan QQS summasi bir oy uchun 192 128 687,86 ni tashkil etgan. Ushbu yuridik shaxs tomonidan oxirgi 3 yil ichida davlat budjetiga tushgan tushumini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin(qiymat so'mda ifodalangan):



6-rasm. “SSS” AJ ning soliq tushumlari²¹

Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013-yilda bu korxona budjetga 472125240.00 so'm tushum kelib tushgan lekin 2014-yilda bu ko'rsatkich keskin oshgan, ya'ni 3273119210.97so'm tushgan. Bu esa 2013-yilga nisbatan 593.3foizga ko'p degani. Buning sababini korxona tomonidan 2013-yilda mahsulotni chetga eksport qilganlik uchun 0 foizlik stavka qo'llanilgan va shuning hisobiga hisobga olingan soliq summasi korxonaning qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq summasidan chiqarilgan. 2014-yilda esa ushbu korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti kamaytirilib, mahalliy iste'molchilarga sotilgan. Buning natijasida o'sha yili davlat budjetiga tushum miqdori keskin oshgan. 2015-yilda 2014-yilga nisbatan 153 foizga bajarilgan.

²¹Qarshi tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Endi ikkinchi korxona Qarshi tumanida faoliyat yuritayotgan MChJ shaklidagi QARSHI-PLASTEKS Qo'shma korxonasining 2016-yil yanvar oyining hisobot ma'lumotini ko'rib chiqamiz:

5-jadval

**QARSHI-PLASTEKS Qo'shma korxonasining 2016-yil yanvar oyi uchun
qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi (so'm hisobida)²²**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)summasi	010	343 352 815,28
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushumjoriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi	020	
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	343 352 815,28
Aholiga sotilgan tabiiy gaz bo'yicha oborotga to'g'ri keladigan va hisobga olinadigan QQS summasi	0301	0,00
Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi	040	61 283 100,34
Aholiga sotilgan tabiiy gaz bo'yicha oborotga hisoblangan QQS summasi	0401	
Budjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	-282 069 714,94
“O'ztransngaz” AK ixtiyorida qoladigan aholiga sotilgan tabiiy gaz bo'yicha QQS summasi	0501	0,00

Hisobotda aks ettirilishicha hisobga olingan jami QQS summasi 343352815,28 so'm, tovarlarni realizatsiya qilish oboroti esa 61 283 100,34 so'mni tashkil qilgan. Natijada budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi -282 069 714,94 so'm manfiy qoldiq bilan chiqmoqda. Bu esa

²²QARSHI-PLASTEKS Qo'shma korxonasining hisobotidan olindi.

korxona 282 069 714,94 so'm budjetga ortiqcha to'lovi mavjud bo'lib, u Soliq kodeksiga binoan soliq to'lovchiga qaytarilishi lozim.

Soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha qarzi mavjud bo'lmagan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha to'langan summasi qonunga muvofiq soliq to'lovchiga qaytariladi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi. Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining soliq davri yakunlariga ko'ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o'tkaziladi va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi quyidagi ketma-ketlikda qaytariladi:

- *Soliq Kodeksning [207-moddasiga](#) muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qoplanadi;

- *soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzi qoplanadi;

- *soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Soliq Kodeksning [207-moddasiga](#) muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini qoplash yoki soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud soliq qarzini qoplash Soliq Kodeksning [56-moddasida](#) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qonunga muvofiq qaytarilgandan keyin saqlanib qolgan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi soliq to'lovchining yozma arizasi asosida uning bank hisobvarag'iga, agar mazkur ariza ortiqcha summa hosil bo'lgan hisobot davri tugaganidan keyin o'n ikki oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etilgan bo'lsa, Soliq Kodeksning [228-moddasida](#) belgilangan tartibda qaytarilishi mumkin.

Ushbu reja orqali qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va budgetga to'lash taribining amaldagi holatini tahlil qilib bu soliqning davlat budjeti daromadlaridagi ahamiyati yuqoriligiga yana bir boramin bo'ldik.

2.2. Qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz qilish usullari va QQS bo'yicha soliq tushumlarini prognoz qilishning xarakterli jihatlari

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognozashtirishda "to'g'ri hisob-kitob" va "o'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishlash" usullaridan foydalanish mumkin.

"To'g'ri hisob-kitob" usulidan foydalanishda tegishli davlat idoralaridan haqiqiy va kutilayotgan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmi va boshqa prognoz hisob-kitob uchun zarur ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotnoma yig'iladi. Aniq hisob-kitobi ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasi asosida prognozashtirish uchun prognoz ko'rsatkichlari aniqlanadi.

O'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishlash usuli orqali qo'shilgan qiymat solig'i prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda avvalgi yillardagi soliq tushumlarini yig'ish borasida erishilgan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi. Yig'ilgan ma'lumotlarga statistik ishlov berilib, prognoz ko'rsatkichlari belgilanadi.

Tahlil uchun olinayotgan ma'lumot manbaasiga qarab qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilish usullarini quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

- haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usuli;
- mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usuli;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usuli;
- ko'p omilli tahlil asosida prognoz qilish usuli.

Haqiqiy erishilgan darajadan kelib chiqib prognoz qilish usulidan foydalanishda oldingi hisobot davrlaridagi qo'shilgan qiymat solig'itushumlari to'g'riidagi, haqiqatdagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Mazkur usulni qo'llashda

prognoz qilinayotgan davr uchun kutilayotgan tushumlar summasi o'tgan hisobot davrlaridagi haqiqatdagi tushumlarga nisbatan koeffitsient qo'llash orqali hisoblab chiqiladi. Koeffitsientni aniqlashda ekstrapolyatsiya usuli foydalanish mumkin.

Kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarining hisob-kitobida soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlari ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi shakliga ettita qo'shimcha shakllar ilova qilinadi. Ilova qilingan shakllarda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisob-kitobi, avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi, tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oborotlari, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hisob-kitobi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan olingan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi uchun foydalaniladigan, olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi aks etgan hisob-kitob shakli quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha mahlumotlar jamlanadi:

- QQS summasi hisobga olinishi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

- umumbelgilangan soliqlarni to'lashga, shu jumladan yagona soliq to'lovchisi tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga o'tilganda, shuningdek imtiyoz bekor qilinganda QQS to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelganda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qoldiqlari bo'yicha ;

- soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar toifasiga) o'tganda, shu jumladan imtiyozlar tadbiq etilganda, tovar (ishlar, xizmatlar) qoldiqlari bo'yicha;

- Hisobga olinadigan QQS summasi hisob-kitobi uchun foydalaniladigan olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summas.

Mazkur hisob-kitob shaklida tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan olingan jami sof tushum, 20 foizli stavka qo'llaniladigan, 0 foizli stavka qo'llaniladigan, soliq solinmaydigan toifalarga jaratilgan holda aks ettiriladi. Har bir toifaga mansub bo'lgan sof tushum turining ulushi hisoblanadi va shu asosida hisobga olinadigan va hisobga olinmayigan qo'shilgan qiymat summasining miqdori aniqlanadi. Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda qo'llaniluvchi asosiy ko'rsatkichlar yordamida quyidagi ma'lumotlar jamlanadi:

- Avvalgi soliq davrida eksport qilingan, ammo jo'natilgan tovarlar uchun tushum joriy soliq davrida kelib tushgan to'lov hajmi;

- Avvalgi soliq davrida valyuta tushumi to'liq kelib tushmaganligi sababli hisobga olinmagan QQS summasi;

- Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi.

Ushbu hisobot ko'rsatkichlari asosida qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilish uchun zarur bo'lgan, tovarlar, ishlar, xizmatlar realizatsiya qilish oborotlari, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan sof tushumi, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan obrot va realizatsiya bo'yicha boshqa oborotlar haqidagi ma'lumotlar yig'iladi.

Oldingi paragrafda qo'shilgan qiymati solig'i bo'yicha ko'plab soliq imtiyozlari berilganligi to'g'risida mulohaza qilingan edi. Soliq imtiyozlariga to'g'ri keluvchi realizatsiya oboroti, soliq summalarining ehtimoldagi hajmiga to'g'ri baho berish mazkur soliq tushumlarini prognoz qilishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari summlarini o'rganishda mazkur hisobot ko'rsatkichlaridan va ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi hisob-kitobi va u bilan bog'liq ma'lumotlarning zarurligi shundan iboratki, yig'ilgan ma'lumotlardan foydalangan holda davlat byudjetiga haqiqatda to'lanishi lozim bo'lgan soliq tushumi prognozi summasi belgilanadi. Boshqa so'zlar bilan izzohlaganda, nolli darajada soliqqa tortilgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasi prognoz ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz tushumlarining asosiy manbaalaridan biri O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan olingan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idir. Soliq tushumlarini prognoz qilishda O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridan olingan ishlar, xizmatlar hajmi va unga mos keluvchi qo'shilgan qiymati solig'i summasi haqidagi ma'lumotlar ushbu hisobot shaklida yig'iladi.

Davlat soliq idoralariga taqdim qilingan soliq va boshqa hisobotlar asosida qo'shilgan qiymat solig'ini prognozini tashkil qilish uchun tazur ma'lumotlar yig'iladi.

Tumanlar miqyosida hisoblangan soliqlar bo'yicha tushumlarning prognoz summalari esa viloyat soliq boshqarmalarida jamlanib Davlat soliq qo'mitasiga uzatiladi.

Xuddi shu tariqa respublika miqyosida soliqlar bo'yicha tushumlarning prognoz summalari ham barcha hududiy davlat soliq boshqarmalaridagi kutilayotgan tushumlarni jamlash orqali hisoblab chiqiladi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar (korxona ma'lumotlari) asosida prognoz qilish usulida soliqlar bo'yicha kutilayotgan tushumlar hisob-kitobi soliq to'lovchilarning soliq organlariga taqdim etadigan moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari (balans, moliyaviy natijalar to'g'risdagi hisobot va boshqa ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur usulda katta hajmdagi moliyaviy va buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini yuritish zarur bo'lganligi va bu juda ko'p vaqt talab qilganligi bois,

soliq organlarida ushbu hisobotlarning ma'lumotlari kiritib boriladigan dasturiy mahsulot ishlab chiqilgan va kerakli ma'lumotlar avtomatlashgan tarzda prognoz ishiga jalb qilinadi.

Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida prognoz qilish usulida ham soliqlar bo'yicha kutilayotgan tushumlar hisob-kitobi uchchala darajada, ya'ni tuman, hudud va respublika miqyosida amalga oshiriladi.

2.3. Qo'shilgan qiymat solig'i oborotini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili asosida prognozlantirish

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarni hisoblashda uning soliq bazasi va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashimiz zarur. Soliq solish bazasi, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari uchun ushbu tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan mahsulotlar realizatsiyasida, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, hisoblab chiqarilgan aktsiz solig'ini hisobga olgan holda(aktsiz solig'i to'langanda) belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash ishlari bo'yicha qo'shilgan qiymati solig'i bazasi shartnomaviy narxlardan va haqiqatda bajarilgan ish qimatiidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda, soliq solish bazasini aniqlashda

qo'shilgan qiymat solig'i summasini kiritmaydi. Agar materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qo'shilgan qiymati solig'i bazasi aniqlanadi.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'isiz, aktsiz solig'ining summasi kiritilgan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i bazasi qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i bazasi ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq ichida hisoblanadi.

Moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilgan mol-mulklarni realizatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solinadigan bazasi ularning chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i realizatsiya summasining ichida hisoblanadi. Qurilishi tugallanmagan ob'ekt realizatsiyasi uchun qo'shilgan qiymat solig'i bazasi - ob'ektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi. Tovarlarini import qilishda soliq solinadigan baza o'z ichiga tovarlarning bojxona qiymati, shuningdek tovarlarini import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'ini, bojxona bojlarining summalarini oladi. O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan respublika hududida bajarilgan ishlari, ko'rsatilgan xizmatlarining realizatsiya qiymati soliq solinadigan oboroti deb e'tirof etiladi. Qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognoz qilishda soliq solinadigan oborot va import hajmini tavsiflovchi ma'lumotlar soliq to'lovchilar tomonidan taqdim qilinuvchi hisobotlardan yig'iladi. Davlat solii idoralarida bunday ma'lumotlar doimiy yig'ilib, tahlil qilinib boriladi.

Oldingi yillarda erishilgan natijalarning o'zgarish tendentsiyasini o'rganib qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognozlashtiriladi. Bunday prognozlashni ikki usulda amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi usulga asosan, soliq bazasiga ta'sir qiluvchi barcha omillarning oldingi yillardagi tendentsiyasi o'rganiladi va o'rganish natijasida qo'shilgan qiymat solig'ining ko'tilayotgan tushumi prognozlashtiriladi.

Ikkinchi usul bevosita qo'shilgan qiymat solig'i tushumini oldingi yillardagi o'zgarish tendentsiyasiga asoslanadi. Prognozlashning ikki usulida ham ekstrapolyatsiya metodlaridan foydalaniladi. Hisob-kitob natijalariga kutilayotgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, e'tiborga molik bo'lgan omillarni o'zida mujassamlashtiriluvchi koeffitsientlarni ko'paytirib, prognoz ko'rsatkichlarni tartibga solish mumkin.

6-jadval

**Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasi prognoz
ko'rsatkichlarining hisob-kitobi²³**

Ko'rsatkichlar	Oldingi besh yil					O'rtacha miqdor	Prognoz hisob- kitobi bilan qo'shiluv- chi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushum (jami daromad), jumladan, mln. so'mda:	546490	69558 9	750269	79861 1	896459	737483,6	116109,36	853592,96
«O» stavkada soliq solinadigan obort summasi (eksportdan tashqari), mln. so'mda.	45048	51648	57832	59897	62144	55313,8	6210,05	61523,85
«O» stavkada soliq solinadigan obort summasi (eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar), mln. so'mda.	112356	14528 9	167910	19827 1	230451	170855,4	40957,9	211813,3
QQS bo'yicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi, mln. so'mda	82192	94913	101950	11202 0	156670	109549	25482,77	135031,77
20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasi, mln. so'mda.	306894	40373 9	422577	42842 3	447194	401765,4	49420,61	445224,04
Soliq stavkasi	20	20	20	20	20			20
Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i, mln. so'mda.	61378,8	80747 ,8	84515,4	85684 ,6	89438, 8	80353,08	9884,12	89044,81

²³Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz tushumlarini hisoblashda dastlab mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushum, «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi (eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi (eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar), QQS bo'yicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi, 20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasi, hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i ko'rsatkichlarining o'zgarish tendentsiyalari o'rganiladi. O'zgarish qonuniyatlarini aniqlash uchun oldingi besh yil moboynidan erishilgan haqiqatdagi natijalar tadqiq qilinadi. Dastlab besh yilliy ko'rsatkichlarning o'rtacha kattaligi, o'rtacha kattalikdan kvadratik cheklanishi dispresiyasi aniqlanadi.

7-jadval

Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan olingan tushum(jami daromad)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish²⁴

Yillar	Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromad), (x) (mln so'mda)	O'rtacha miqdor(x_1), mln. so'mda	$x - x_1$, mln. so'mda	$(x - x_1)^2 / 5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	546490	737483,6	-190993,6	7295711048,19	85414,93
2	695589	737483,6	-41894,6	351031501,83	18735,83
3	750269	737483,6	12785,4	32693290,63	5717,8
4	798611	737483,6	61127,4	747311806,15	27337
5	896459	737483,6	158975,4	5054635561,03	71095,96
Jami	3687418		0	13481383207,84	116109,36

Mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushum(jami daromad) tahlili uchun besh yillik shartli ma'lumotlar olingan. Tahlil uchun olingan davrda jami daromadning

²⁴Muallif tomonidan ishlab chiqildi

o'rtacha miqdori 737483,6 mln. so'mni, uning dispersiyasi 116109,36 mln. so'mni tashkil qilgan. Mos ravishda, qo'shilgan yimat solig'i bo'yicha tushumni prognoz qilishda 853592,96 mln. so'mlik jami daromad summasi yig'ilishi ko'tilmoqda.

8-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obrot summasi (eksportdan tashqari)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish²⁵

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obrot summasi(eksportdan tashqari), ming so'mda.(x)	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	45048	55313,8	-10265,8	21077329,93	4591,01
2	51648	55313,8	-3665,8	2687617,93	1639,4
3	57832	55313,8	2518,2	1268266,25	1126,17
4	59897	55313,8	4583,2	4201144,45	2049,67
5	62144	55313,8	6830,2	9330326,41	3054,56
Jami	276569		0	38564684,96	6210,05

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognoz qilishda «O»stavkada soliq solinadigan obrot summasi(eksportdan tashqari) alohida o'rganiluvchi omil sifatida qaraladi. Tadqiqot uchun olingan besh yillik jami «O»stavkada soliq solinadigan obrot summasi(eksportdan tashqari) 276569 mln. so'mni tashkil qilgan. Uning o'rtacha kattaligi 55313.8 mln. so'mni, dispersiyasi 6210,05 mln. so'mni tashkil qilgan. Shu sababli qo'shilgan qiymat solig'ini prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda 61523,85 mln. so'mlik «O»stavkada soliq solinadigan obrot summasi(eksportdan tashqari) olindi.

²⁵Muallif tomonidan ishlab chiqildi

«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish²⁶

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), ming so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	112356	170855,4	-58499,4	684435960,07	26161,73
2	145289	170855,4	-25566,4	130728161,79	11433,64
3	167910	170855,4	-2945,4	1735076,23	1317,22
4	198271	170855,4	27415,6	150323024,67	12260,63
5	230451	170855,4	59595,6	710327107,87	26651,96
Jami	854277	170855,4	0	1677549330,64	40957,9

«O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish ham oldingi besh yillik kuzatuv natijalari asosida amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichning hisob- kitob natijalari qo'shilgan qiymat solig'ini ehtimoldagi miqdorini kamayishiga olib keladi. Bizning shartli misolimizda «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning kutilayotgan miqdori 211813,3 mln. so'mni tashkil qilgan(170855,4+40957,9).

QQS bo'yicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasini o'zgarish qonuniyatlarini tadqiqoti²⁷

Yillar	QQS bo'yicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi,ming so'mda	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	82192	109549	-27357	149681089,8	12234,42
2	94913	109549	-14636	42842499,2	6545,42

²⁶Muallif tomonidan ishlab chiqildi

²⁷Muallif tomonidan ishlab chiqildi

3	101950	109549	-7599	11548960,2	3398,38
4	112020	109549	2471	1221168,2	1105,06
5	156670	109549	47121	444077728,2	21073,15
Jami	547745	109549	0	649371445,6	25482,77

O'tgan besh yil davomida QQS bo'yicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan jami obort summasi 547745 mln. so'mni, imtiyoz summalarining o'rtacha miqdor kattaligi 109549 mln. so'mni, dispersiyasi 25482,77 mln. so'mni tashkil qilgan. Mos ravishda, qo'shilgan qiymat solig'i solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari berilishi prognoz yilida kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasini miqdorini 135031,77 mln. so'mga kamayishiga olib keladi.

11-jadval

20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasini o'zgarish qonuniyatlari tadqiqoti²⁸

Yillar	20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasi, mln. so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln. so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	306894	401765,4	-94871,4	1800116507,59	42427,78
2	403739	401765,4	1973,6	779019,39	882,62
3	422577	401765,4	20811,6	86624538,91	9307,23
4	428423	401765,4	26657,6	142125527,55	11921,64
5	447194	401765,4	45428,6	412751539,59	20316,29
Jami	2008827	401765,4	0	2442397133,04	49420,61

20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazasini o'zgarish qonuniyatlari tadqiqoti natijasida uning o'rtacha miqdori 401765.4 mln. so'm, dispersiyasi 49420,61 mln. so'mga tengligi belgilandi. 8-jadvalga qarang.

Qo'shilgan qiymat solig'i tushumlarini prognozi uchun 20% stavkada undiriluvchi qo'shilgan qiymat solig'i bazasining kutilayotgan miqdori 445224,04 mln. so'm qilib belgilandi.

²⁸Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz davridagi kutilayotgan miqdori mahsulot, ish va xizmat sotuvidan tushumi, «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi (eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obort summasi (eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar), QQS bo'yicha soliq imtiyoziga ega bo'lgan obort summasi, 20% stavkada undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash bazalarining prognoz hisob-kitob natijalari asosida aniqlashimiz mumkin. Ushbu usulga asosan, prognoz qilinayotgan yilda jami bo'lib 89044,81 mln. so'mlik mln. so'mlik qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisoblanishi kutilmoqda. Ammo, hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasini prognoz ko'rsatkichini o'tgan besh yil davomida bevosita, haqiqatdagi natijalar asosida ham tadqiqot qilib, belgilashimiz mumkin. Bu ikki usulda aniqlangan prognoz ko'rsatkichi o'rtasida farq sezilarli hisoblanmaydi.

12-jadval

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i²⁹

Yillar	Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i	O'rtacha miqdor (x_1), mln. so'mda	$x - x_1$, mln. so'mda	$(x - x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	61378,8	80353,0800	-18974,28	72004660,3	8485,56
2	80747,8	80353,0800	394,72	31160,78	176,52
3	84515,4	80353,0800	4162,32	3464981,56	1861,45
4	85684,6	80353,0800	5331,52	5685021,1	2384,33
5	89438,8	80353,0800	9085,72	16510061,58	4063,26
Jami	401765,4	80353,0800	0	97695885,32	9884,12

O'tgan besh yil davomida haqiqatda hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasini tadqiqot qilish natijasida 80353.08 mln. so'mlik o'rtacha hisoblangan miqdor, 9884,12 mln. so'mlik qo'shimcha qo'shiluvchi miqdor aniqlandi.

²⁹Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Natijada, ikkinchi usulga asosan, 90237.20 mln. so'mlik qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanishi kutilishi aniqlandi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini bo'yicha soliq tushumlarni prognoz qilishda faqat hisoblanishi kutilayotgan soliq summasini belgilash yetarli bo'lmaydi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetga undirilishida hisobga olinadigan, soliq obortiga oid, tovar, mahsulot, ish, xizmatlarni xarid qilishda haqiqatda to'lanishi kutilayotgan soliq summasini ham hisob-kitob qilish zarur.

13-jadval

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'lanadigan, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini prognoz ko'rsatkchilarini hisob-kitobi³⁰

Ko'rsatkichlar	Oldingi besh yil					O'rtach a miqdor	Prognoz hisob- kitobi bilan qo'shilu vchi qiymat	Prognoz yili
	1	2	3	4	5			
Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda, jumladan:	20156	25594	29683	32264	36952	28929,8	5729,69	34659,49
20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda.	8549	11486	14123	15462	16964	13316,8	2987,9	16304,7
«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), mln. so'mda.	1600	2000	2301	2405	2843	2229,8	415,03	2644,83
«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.	4006	5123	5831	6300	7200	5692	1079,76	6771,76
Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmi, mln. so'mda	112356	145289	167910	198271	230451	170855,4	40957,9	211813,3

³⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta hajmi, mln.so'mda	90458	123875	152643	188563	219597	155027,2	45692,96	200720,16
Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta qiymatining jami eksport hajmidagi ulushi, %da	80,51	85,26	90,91	95,1	95,29	89,41	5,76	94,763
«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.	3225,24	4367,93	5300,82	5991,53	6860,89	5149,24	1262,83	6417,11
Soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln so'mda.	6781,76	7740,07	7958,18	8405,47	10284,11	8233,92	1154,24	9292,86
Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda,	13374,24	17853,93	21724,82	23858,53	26667,89	20695,8820	4656,37	25366,63
Haqiqatda byudjetga to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi,mln.so'mda.	48004,56	62893,87	62790,58	61826,07	62770,91	59657,2	5227,75	63678,18

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'lanadigan, hisobga olininuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini prognoz ko'rsatkchilarini hisob-kitobini amalga oshirishda 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmi, eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta hajmi, eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta qiymatining jami eksport hajmidagi ulushi,«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish

va xizmatlar), soliq solinmaydigan oborotga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarining o'zgarish tendentsiyalari tadqiqot qilinadi. 10-jadvalga qarang.

Hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichdan oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining prognoz ko'rsatkichini ayirish natijasida haqiqatda byudjetga to'lanuvchi qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz ko'rstakichi belgilanadi.

Hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasi ko'rsatkichini prognoz qilishda dastlab oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi tadqiq qilinadi.

14-jadval

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zgarish qonuniyatlari³¹

Yillar	Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda,	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	20156	28929,8000	-8773,8	15395913,29	3923,76
2	25594	28929,8000	-3335,8	2225512,33	1491,82
3	29683	28929,8000	753,2	113462,05	336,84
4	32264	28929,8000	3334,2	2223377,93	1491,1
5	36952	28929,8000	8022,2	12871138,57	3587,64
Jami	144649	28929,8000	0	32829404,16	5729,69

Tadqiqot uchun tanlangan oldingi oldingi besh yillik, oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'rtacha miqdori 28929.8 mln. so'mni,

³¹Muallif tomonidan ishlab chiqildi

dispersiyasi 5729,69 mln.so'mni tashkil qilgan. Ikki ko'rsatkich birgalikda 34659,49 mln.so'mni tashkil qiladi. Aynan, 34659,49 mln. so'm qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognoz qilishda kutilayotgan, oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisoblanadi.

20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan hamda hisobga olinadigan, qo'shilgan qiymat solig'i summasi mazkur soliq tushumining prognoz ko'rsatkichini kamayishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zgarish qonuniyatini tadqiq qilish o'ta muhim hisoblanadi.

15-jadval

20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'zgarish qonuniyati³²

Yillar	20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi,mln. So'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	8549	13316,8000	-4767,8	4546383,37	2132,22
2	11486	13316,8000	-1830,8	670365,73	818,76
3	14123	13316,8000	806,2	129991,69	360,54
4	15462	13316,8000	2145,2	920376,61	959,36
5	16964	13316,8000	3647,2	2660413,57	1631,08
Jami	66584	13316,8000	0	8927530,96	2987,9

Tadqiqot uchun tanlangan davr ichida, 20% stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining o'rtacha miqdori 13316.8 mln.so'mni, dispersiyasi esa 2987,9 mln.so'mni tashkil qilgan. Mazkur prognoz ko'rsatkichi ta'siri natijasida kutilayotgan prognoz yilida

³²Muallif tomonidan ishlab chiqildi

byudjetga tushadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi 16304,7 mln. so'mga kamayishi bashorat qilinmoqda.

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ham byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i – hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'ining prognoz ko'rstakichlarini kamayishiga olib keladi.

16-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari)ning o'zgarish qonuniyatlari tadqiqi³³

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), mln. so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	1600	2229,8000	-629,8	79329,61	281,66
2	2000	2229,8000	-229,8	10561,61	102,77
3	2301	2229,8000	71,2	1013,89	31,84
4	2405	2229,8000	175,2	6139,01	78,35
5	2843	2229,8000	613,2	75202,85	274,23
Jami	11149	2229,8000	0	172246,96	415,03

Oldingi besh yil davomida «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), jami bo'lib 11149 mln. so'mni tashkil qilgan. Uning o'rtacha miqdori 2229.8 mln. so'mni, dispersiyasi 415,03 mln. so'mni tashkil qilgan. Rejalashtirilayotgan yilda «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari) 2644,83 mln. so'mga tenglashishi kutilmoqda va mos ravishda hisoblanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i

³³Muallif tomonidan ishlab chiqildi

summasini davlat budjetiga undirilgan qismini shuncha miqdorga kamayishiga olib keladi.

17-jadval

**«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan
qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va
xizmatlar)³⁴, mln so'mda.**

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	4006	5692,0000	-1686	568519,2	754
2	5123	5692,0000	-569	64752,2	254,46
3	5831	5692,0000	139	3864,2	62,16
4	6300	5692,0000	608	73932,8	271,91
5	7200	5692,0000	1508	454812,8	674,4
Jami	28460	5692,0000	0	1165881,2	1079,76

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari prognoz ko'rsatkichiga ta'siriga baho berish uchun eksportga sotiladigan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmini ehtimoldagi miqdorini aniqlash zarur.

18-jadval

**Prognoz yilida eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning
kutilayotgan umumiy hajmi tadqiqi³⁵**

Yillar	Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning umumiy hajmi, mln.so'mda	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
--------	---	--------------------------------------	-----------------------	-----------------------------	--------------------

³⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

³⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

1	112356	170855,4000	-58499,4	684435960,07	26161,73
2	145289	170855,4000	-25566,4	130728161,79	11433,64
3	167910	170855,4000	-2945,4	1735076,23	1317,22
4	198271	170855,4000	27415,6	150323024,67	12260,63
5	230451	170855,4000	59595,6	710327107,87	26651,96
Jami	854277	170855,4000	0	1677549330,64	40957,9

18-jadval ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, prognoz yilida eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarning kutilayotgan umumiy hajmi 211813,3 mln. so'mga tenglashishi ehtimol qilinmoqda(170855,4+40957,9). Hisobga olinadigan qo'shilgan qimmat solig'i summasini aniqlash uchun eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, prognoz yilida kelib tushadigan valyuta hajmini aniqlash talab qilinadi.

19-jadval

**Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun,
prognozlashtirilayotgan yilda kelib tushishi kutilayotgan valyuta hajmini
tadqiqi³⁶**

Yillar	Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun, joriy davrda kelib tushgan valyuta hajmi, mln.so'mda	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	90458	155027,2000	-64569,2	833836317,73	28876,22
2	123875	155027,2000	-31152,2	194091912,97	13931,69
3	152643	155027,2000	-2384,2	1136881,93	1066,25
4	188563	155027,2000	33535,8	224929976,33	14997,67
5	219597	155027,2000	64569,8	833851814,41	28876,49
Jami	775136	155027,2000	0	2087846903,36	45692,96

³⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

O'tgan besh yil moboynda eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar uchun jami bo'lib 775136 mln. so'mlik chet elvalyutasi tushgan. Tushgan valyuta qiymatining yillik o'rtacha miqdori 155027.2 mln. so'mni tashkil qilgan. Valyuta tushumining yillik o'rtacha miqdori va dispersiyasi asosida prognoz yilida 200720,16 mln.so'mlik valyuta qimati tushishi kutilishi hisoblandi.

Eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarga oid, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'I summasini aniqlash uchun prognozashtirilayotgan yilda kelib tushuvchi valyuta qiymatining jami eksport hajmidagi ulushini aniqlash talab qilinadi.

Amalga oshirilgan hisob-kitob va tadqiqot natijasida prognozashtirilayotgan yilda kelib tushuvchi valyuta qiymatining jami eksport hajmidagi ulushi 94,763 % ni tashkil qilish kutilmoqda.

Prognoz yilida kutilayotgan, eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlarga oid, hisobga olinuvchi qo'shilgan qiymat solig'i summasi 6417,11 mln. so'm($(6771,76 \times 94,763 \%) / 100$) aniqlandi.

Endi «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisob-kitob asosida emas, balkim uning o'zining oldingi besh yildagi haqiqatdagi natijasi asosida hisoblaymiz(taqqoslash uchun).

20-jadval

«O»stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar)ning kutilayotgan o'zgarish qonuniyati³⁷

Yillar	«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot,tovar, ish va xizmatlar), mln so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	3225,24	5149,2420	-1924	740356,74	860,44
2	4367,93	5149,2420	-781,31	122089,69	349,41

³⁷Muallif tomonidan ishlab chiqildi

3	5300,82	5149,2420	151,58	4595,18	67,79
4	5991,53	5149,2420	842,29	141889,81	376,68
5	6860,69	5149,2420	1711,45	585810,85	765,38
Jami	25746,21	5149,2420	0	1594742,27	1262,83

«O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini oldingi besh yildagi haqiqatdagi natijasi asosida hisoblaganda uning qiymati(5149.242 mln. so'm+ 1262,83 mln. so'm) 6312.07 mln. so'mga tenglashdi.

Prognoz yilida soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qo'shilgan qiymati solig'i tushumlar pognozini ko'rsatkichini oshishiga olib keladi.

21-jadval

Soliq solinmaydigan oborotga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi³⁸, mln so'mda

Yillar	Soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln so'mda.	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	6781,76	8233,9180	-1452,16	421752,57	649,42
2	7740,07	8233,9180	-493,85	48777,17	220,86
3	7958,18	8233,9180	-275,74	15206,29	123,31
4	8405,47	8233,9180	171,55	5886,02	76,72
5	10284,11	8233,9180	2050,19	840657,45	916,87
Jami	41169,59	8233,9180	0	1332279,49	1154,24

Prognozlashtirilayotgan yilda soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining kutilayotgan summasini aniqlash uchun Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan 20%

³⁸Muallif tomonidan ishlab chiqildi

stavkada soliq solinadigan oborotga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportdan tashqari), «O»stavkada soliq solinadigan obortga oid, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi(eksportga sotilgan mahsulot, tovar, ish va xizmatlar) ayirib tashlanadi. Bizning hisob-kitobimiz natijasida kutilayotgan, to'langan, ammo hisobga olinmaydigan qo'shilgan soliq summasi 9292,86 mln. so'mni tashkil qiladi.

Oldingi besh yil haqiqatdagi natijasi asosida hisoblagan soliq solinmaydigan obortga oid, hisobga olinmaydigan qo'shilgan qiymat solig'ining kutilayotgan summasi 9388.158 mln. so'mga (8233,918 mln. so'm + 1154.24 mln. so'm) tenglashdi.

Prognozlashtirilayotgan davrda oborot uchun ishlatiladigan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'lanadigan, hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ining kutilayotgan summasi 25366,63 mln. so'mga tenglashishi hisoblandi. Ammo ushbu prognoz ko'rsatkichini oxirgi besh yil davomida haqiqatda erishilgan natijalarni tahlil qilgan holda ham aniqlashimiz mumkin.

22-jadval

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi³⁹, mln. so'mda

Yillar	Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi, mln. so'mda,	O'rtacha miqdor(x_1), mln.so'mda	$x-x_1$, mln. so'mda	$(x-x_1)^2/5$, mln. so'mda	O'KCH, mln. so'mda
1	13374,24	20695,8820	-7321,64	10721288,32	3274,34
2	17853,93	20695,8820	-2841,95	1615338,23	1270,96
3	21724,82	20695,8820	1028,94	211742,68	460,16
4	23858,53	20695,8820	3162,65	2000468,47	1414,38
5	26667,89	20695,8820	5972,01	7132975,91	2670,76
Jami	103479,41	20695,8820	0	21681813,62	4656,37

³⁹Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'ining kutilayotgan summasini aniqlash uchun oxirgi besh yillik ma'lumotlarning o'rtacha miqdori va dispersiyasi hisoblanadi. Bizning hisobimizda kutilayotgan, hisobga olinadigan hamda to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining o'rtacha miqdori 20695.882 mln. so'mga, dispersiya miqdori 4656,37 mln. so'mga tenglashgan(Ikkinchi usul).(22-jadvalga qarang).

Prognozlashtirilayotgan yil uchun haqiqatda budjetga to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini aniqlash uchun jami hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'ining kutilayotgan summasini ayirish oraqli aniqlanadi. Bizning hisob-kitobimiz natijasida byudjetga haqiqatda to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi 63678,18 mln. so'mga tenglashdi.

Qo'shilgan qiymati solig'i bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini tashkil qilishda, olib borilgan tadqiqot hisob-kitoblaridan tashqari, boshqa ta'sir qiluvchi omillarni inobatga olish zarur hisoblanadi. Shunday omillarga soliq to'lovchining soliq qarzdorligi, debitorlik qarzlari va shu kabi boshqa faktorlar kiradi. Ayniqsa debitorlik qarzlari soliq to'lovchining soliq qarzdorligini majburiy tartibda undirish asosiy manbaalaridan biri hisoblanadi.

2-bob bo'yicha xulosa

Ilmiy ishimizning ikkinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini undirish va budjetga to'lash mexanizmini, soliq bo'yicha berilgan imtiyozlarning guruhlanishi, budjetga to'lash muddatlarini amaliy materiallar asosida tahlil qildik. Bunda Jizzax shahrida faoliyat yuritayotgan ikkita korxonaning hisobot ma'lumotlaridan foydalandik. Shunday qilib, qo'shilgan qiymat solig'ining soliq to'lovchilari, obykti, soliq solish bazasini hisoblab chiqarish va soliq bo'yicha boshqa qoidalar O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 197-228-moddalariga asoslanib tartibga solinadi. Umuman olganda, Soliq kodeksining 224-

moddasiga muvofiq Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan Soliq kodeksning 218-moddasiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Tovarlarini import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i tushumini prognozashtirishda "to'g'ri hisob-kitob", va "o'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishlash" usullaridan foydalanish mumkin. "To'g'ri hisob-kitob" usulidan foydalanishda tegishli davlat idoralaridan haqiqiy va kutilayotgan mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmi va boshqa prognoz hisob-kitob uchun zarur ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotnoma yig'iladi. Aniq hisob-kitobi ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i bazasi asosida prognozashtirish uchun prognoz ko'rsatkichlari aniqlanadi.

O'tgan davr ko'rsatkichlarini statistik qayta ishlash usuli orqali qo'shilgan qiymat solig'i prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda avvalgi yillardagi soliq tushumlarini yig'ish borasida erishilgan natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi. Yig'ilgan ma'lumotlarga statistik ishlov berilib, prognoz ko'rsatkichlari belgilanadi. Prognozashtirilayotgan yil uchun haqiqatda byudjetga to'lanishi kutilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini aniqlash uchun jami hisoblangan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan oborot uchun ishlatilgan tovar, ish va xizmatlarni sotib olishda to'langan, hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'ining kutilayotgan summasini ayirish oraqli aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini bo'yicha soliq tushumlarni prognoz qilishda faqat hisoblanishi kutilayotgan soliq summasini belgilash yetarli bo'lmaydi. Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetga undirilishida hisobga olinadigan, soliq obortiga oid, tovar, mahsulot, ish, xizmatlarni xarid qilishda haqiqatda to'lanishi kutilayotgan soliq summasini ham hisob-kitob qilish zarur.

3-BOB. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I PROGNOZINI TASHKIL QILISHNI VA BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Qo'shilgan qiymat solig'i prognozini tashkil qilishni takomillashtirish

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida, ayniqsa uning eng muhim turlaridan biri bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tartibini takomillashtirish, budjetga solikli daromadlar tushumini oshirish hamda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqaruvchi va uni oldi-sotti faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisoblashni takomillashtirish yo'llarini ko'rib chiqish shu kunning dolzarb masalalaridandir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirish sharoitida soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbayi bo'lishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, iqtisodiyotning ustuvor sohalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Bunda, soliq tizimida yetakchi o'ringa ega bo'lgan va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda g'oyat muhim fiskal vazifani bajarib kelayotgan egri soliqlarning ahamiyati g'oyat yuksakdir. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, soliqlar xazinani to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda soliq tizimini rivojlantirishda uning rag'batlantirish vazifasidan samarali foydalanishni talab etiladi. Bunda soliqlar vositasida korxonalarning faoliyatini rag'batlantirish va natijada ular iqtisodiy faolligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki korxonalarning iqtisodiy faolligining rivojlanishi bir tomondan, uning iqtisodiy yuksalishiga, daromadlarining oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchi sifatida soliqqa tortiladigan bazaning kengayishiga olib keladi va bu oxir oqibatda budjet daromadlarining oshishini keltirib chiqaradi. Hozirgi kunda egri soliqlar davlat budjetining daromadlar qismida salmoqli o'rinlarni egallaydi. Shu sababli egri

solliqlarning hisobini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Demak, hozirda, mamlakatimiz soliq tizimi oldida bozor munosabatlarini to'laqonli shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish bilan bir qatorda, davlat budjetini mablag'lar bilan ta'minlash hamda ustivor yo'nalishdagi iqtisodiy faoliyatni soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida, ayniqsa uning eng muhim turlaridan biri bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tartibini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Korxonaning o'z ehtiyoji uchun olingan asosiy vosita va nomoddiy aktivlari korxonaning buxgalteriya balansida mol yetkazib beruvchiga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan birga yozilib kirim qilinadi. Agar balansdagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar sotilsa, u holda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib, sotish bahosi bilan qoldiq qiymat o'rtasidagi farq hisoblanadi. Bunda, agar korxona asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qoldiq qiymatida sotsa, u holda soliqqa tortiladigan obyekt bo'lmaydi va budjetga soliq to'lanmaydi. Shuningdek, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqaruvchi va uni oldi-sotti faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun qo'shilgan qiymat solig'i hisoblashning alohida tartibi mavjud. Egri soliqlar mexanizmidagi muhim muammolardan biri sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti tarkibini belgilashdagi muammolarni keltirish o'rinlidir. Soliq kodeksining 199-moddasiga asosan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti tarkibiga soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi, banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi kabi jarayonlar kiritilgan bo'lib, bular, bizning fikrimizcha, iqtisodiy jihatdan o'z mazmuniga ega emas. Bu esa budjetga soliqli daromadlar tushumini oshirishning aksincha natijalarini keltirib chiqaradiki, soliq siyosatidagi neytrallikning yo'qotilishi soliq yuki oshib ketishiga, bu, o'z navbatida, soliq to'lovchilarning soliqdan qochish maqsadida o'z daromadlarini yashirishga, kapitalni "xufyona iqtisodiyot"da aylantirishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirib yuboradi. Bu holat, davlat va umumjamiyat mafaatlari-ga zidligidan dalolat beradi. Sababi, Davlat budjeti daromadlarini ko'paytirishning

ikkinchi yo'nalishi esa soliq solishning yashirilgan bazasini aniqlash va soliqqa tortishdan iborat. Shu o'rinda soliq to'lashdan qochish, unga qarshi kurashish va bu borada respublikamizda hamda xorijda qanday tadbirlar amalga oshirilishi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Soliq to'lashdan qochish iqtisodiy subyektning foydasini maksimallashtirishga intilishning natijasidir. Barcha soliqlar va to'lovlar korxona tomonidan tashqi ta'sirga asoslangan xarajat hisoblanadi va uning ma'lum bir darajadan ko'tarilishi bu soliqlardan qochish yoki ularni kamaytirishga qiziqishni kuchaytirishga olib keladi. Soliq to'lashdan qochish, noqonuniy yo'llar bilan topilgan mablag'lardan yana ishlab chiqarishda foydalanish orqali "xufyona iqtisodiyot ning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bizningcha, bu bilan kurashishning qanchalik zarurligini ortiqcha izohlashga zarurat yo'q. Respublikamizda soliqqa oid huquqbuzarlikka qarshi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi qurashish departamenti shug'ullanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 apreldagi PQ-331-sonli "Moliya-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi qurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazkur sohada olib borilayotgan ishlarga o'ziga xos turtki bo'ldi. Bu boradagi yana bir muammolardan biri qurilish sohasida qo'shilgan qiymat solig'ini undirish jarayoni bilan bog'liqdir. Ma'lumki, Soliq kodeksining qoidalariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha "Qurilish, qurilish- montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomondan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir", deb qayd etilgan. Ta'kidlash o'rinliki, qurilish korxonalari qurilayotgan obyekt bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga qurilish ishlari bitgandan so'ng to'laydilar. Ammo, keyingi yillardagi tahlillar shuni

ko'rsatmoqdaki, ko'pgina obyektlar bo'yicha qurilishda materiallarning me'yor talablariga muvofiq sarflanmasligi, talon-taroj qilinishi oqibatida obyektlar ishga tushirilmasdan qolib qo'shilgan qiymat solig'i budjetga undirilmasdan qolmoqda. Shuning uchun qurilish korxonalari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini tasdiqlangan loyiha qiymatining bajarilishiga muvofiq har oyda to'lab borilishini joriy etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Soliq siyosatida asosiy e'tibor, hamisha, soliqlarning davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini ta'minlash masalasiga qaratiladi. Mahalliy budjetlarga soliq va boshqa to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq kelib tushmasligi, yuqori budjetdan ajratiladigan ajratmalarning qisqarib ketishi, o'z vaqtida amalga oshirilmasligi kabi holatlar moliya yilida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan tadbirlarning o'z muddatida moliyalashtirilmasligiga olib keladiki, bunday holatlar iqtisodiy islohotlar samarasining pasayib ketishiga olib keladi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi. Soliq kodeksining 203-moddasiga muvofiq ishlar, xizmatlar doymiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan taqdirda, hisobvaraq-faktura yozilgan sana ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash paytida soliqqa tortiladigan baza bo'lib yangidan yaratilgan qiymat ya'ni tovar mahsuloti bilan shu tovarni ishlab chiqarish ishlatilgan xom ashyolar qiymati o'rtasidagi farq hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisob - kitoblarni korxona ortib boruvchi yakun bilan ro'yxatdan o'tgan joyidagi Davlat soliq idoralariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda taqdim etadi. Korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini soliq hisobini topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi haqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to'laydi. Agar korxona hisoblangan soliq summasini byudjetga o'z vaqtida o'tkazib bermasa, bunday holatda Davlat soliq idoralari mas'ul xodimlari tomonidan hisoblangan soliq sumasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,033 foiz miqdorida penya (moliyaviy jazo) qo'llanilishiga olib keladi. Bunda korxona rahbariyatiga nisbatan ma'muriy chora qo'llanilmaydi. Chunki, ushbu jarayonlarning soliq oboroti sifatida belgilanishi soliq to'lovchining

o'z imkoniyatlari evaziga ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishni kamaytiradi, banklarning esa kapitallashuviga salbiy ta'sir etadi. Vaholanki, bugungi kunda banklarning kapitallashuvini oshirish davlatimizning ustuvor iqtisodiy siyosati sifatida belgilab olingan. Bu borada keskin choralarni faqat o'z vaqtida budjetga o'tkazilmayotgan soliq summalariga nisbatangina emas, balki korxonalar boshqa to'lovlarining o'tkazilishida to'xtalishlar yo'l qo'yilayotgan holatlar uchun ham qo'llash zarur. Chunki bunday holatlarga yo'l qo'yilayotganligi korxonalarning moliyaviy ahvolini yanada yomonlashtirmoqda. Banklar tomonidan hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan dalillar amaliyotda ko'p uchrab, ular oxir-oqibatda noto'lovlarining o'sishiga olib kelmoqda, mamlakatdagi pul muomalasining ahvoliga keskin salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Pul muomalasining harakati mamlakat doirasida buzilayotgan ekan, uni tuzatish uchun ayrim hollarda ma'muriy xarakterdagi qarorlar qabul qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Jumladan, mablag'larning davlat byudjetiga o'z vaqtida borib tushishini ta'minlash borasida banklar javobgarligini kuchaytirish zarur. Xususan, soliq organlarining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarining so'zsiz undirilishi to'g'risidagi to'lov talabnomalari banklar tomonidan birinchi navbatda ijro etilishi kerak. Huloosa qilib aytganda, soliq kodeksining 199-moddasi bo'yicha asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish obyektlarini bepul asosda berish tovarlarni sotish aylanmasi hisoblanmaydi va natijada, ushbu aylanmalardan qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaydi. Bu holat o'zaro aloqador korxonalarni qo'shilgan qiymat solig'idan qochish uchun qulay imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Bizningcha, asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish obyektlarini bepul asosda berish bo'yicha operatsiyalardan qo'shilgan qiymat solig'i undirilishi ushbu soliqdan qochish yo'llarini kamaytirishga va budjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga undirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Mustaqil O'zbekiston o'z xalqi tanlab olgan yo'l - ochiq, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida ko'plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham shular jumlasidandir. Aytish mumkinki, mustaqillikka erishgan paytdan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi boshidan katta o'zgarishlarni kechirdi, hamda bu o'zgarishlar ijobiy natija berayotganini hozirgi kunda ko'rishimiz mumkin. Lekin ushbu natijalar bilan chegaralanib qolmasligimiz kerak. Chunki, butun jaxon doimiy harakatda, iqtisodiyotda katta o'zgarishlar bo'lmoqda, hayot tarzi o'zgarmoqda. Shuning uchun erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmay yanada yuqoriroq cho'qqilarni egallashga intilish darkor.

Bozor munosabatlarini liberallashtirish davrida soliqlar strategik ahamiyatga ega bo'lgan pul munosabatlarini yuzaga keltiruvchi manba hisoblanadi. Soliqlar orqali davlatimiz xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatiga ta'sir ko'rsata oladi, hamda ularni rag'batlantiradi. Undan tashqari, soliqlar davlat o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini shakllantiradi.

Shunday ekan, hozirgi kunda, bizning oldimizda turgan asosiy vazifa – bu O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish, bunda soliqqa tortish tizimida mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini aniqlash va ularni amalda qo'llay olishdir. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi soliq turlaridan biri qo'shilgan qiymat solig'idir. Quyida qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va soliqning amaldagi mexanizmini takomillashtirish borasida takliflarni keltiramiz.

1) Qo'shilgan qiymat solig'idan berilgan imtiyozning korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga va narxlarga ta'siri masalasiga batafsil to'xtalib o'tadigan bo'lsak, soliqdan ozod qilingan sub'ektlar o'z ishlab chiqarish faoliyatiga zarur bo'lgan resurslarni qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda sotib oladilar va

ushbu soliq miqdorini ular bajarilgan ishlar tannarxiga qo'shadilar, bu bajarilgan ishlar narxining o'z – o'zidan oshishiga olib keladi. Agar korxona bajarilgan ishlar narxini oshira olmasa, u ushbu ishlarni bajarish uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirishi lozim. Bu o'rinda birinchi holatda qo'shilgan qiymat solig'i iste'molga, ikkinchisida esa ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan soliq qonunchiliklariga asosan soddalashtirilgan soliq tizimida faoliyat yuritadigan xo'jalik sub'ektlari QQSni ixtiyoriy ravishda to'lashlari mumkin. Biroq, ko'pgina korxonalarining mol etkazib beruvchi va xaridorlari qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lsalarda, ular, ya'ni soddalashtirilgan tizimida faoliyat yurituvchi korxonalar ixtiyoriy tanlash xuquqi berilganligi uchun QQSni to'lashdan qochmoqdalar.

Agar qo'shilgan qiymat solig'iga tortish tartibida ishlovchi korxonalar ishlab chiqargan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlari uchun yagona soliq to'lovi to'lovchi hisoblangan korxonalardan moddiy resurslar sotib olganda, ushbu moddiy resurslar bo'yicha QQS summasini yuqorida ta'kidlanganidek hisobga o'tkazolmaydilar va ular budjetga to'lanadigan QQS summasini to'liq aylanmadan hisoblashlari lozim. Bu holda soliq solish bazasi – sotish aylanmasi hajmi katta miqdorni tashkil etadi. Bundan tashqari, QQS to'lanmaydigan korxonalarning soliq yuki keyingi bosqichga – soliq to'lovchi hisoblangan ishlab chiqaruvchi, ishlar va xizmatlarni amalga oshiruvchilar zimmasiga tushadi. Shu sababli soliq to'lovchi hisoblangan korxonalar QQS to'lamaydigan korxona va tashkilotlardan xomashyo va moddiy resurslar sotib olishdan qochishadi. Bu hol bozorda raqobatning tengsiz sharoitlarini yuzaga keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, aniqrog'i, alohida tartibda soliq to'lovchilarning mavjudligini hisobga olgan holda qo'shilgan qiymat solig'ining samarali qo'llanishi maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Soddalashtirilgan soliq tizimida faoliyat yuritadigan xo'jalik subyektlarining QQS to'lovchisi bo'lgan korxonalar bilan bo'ladigan o'zaro savdo operatsiyalarining bir oylik summasi yigirma minimal ish xaqidan oshsa, ushbu

xo'jalik sub'ektlarining majburiy ravishda QQS to'lovchi korxonalar tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

2) Ma'lumki, hozirgi paytda mamlakatimizda amal qilayotgan tartibga asosan, QQS hisobga olish usuli bo'yicha undirilmoqda. Bu usul QQSni undirishda qulayligi bilan birga hozirgi respublikamizda kechayotgan o'tish davrida o'ziga xos bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Birinchidan, mahsulotni etkazib berish paytida QQSning hisoblanishi, hali kelib tushmagan mablag'lar uchun korxona xom ashyo materiallarini QQS to'lamaydigan korxonalardan sotib olgan sharoitda aylanma mablag'lar hisobidan QQSning to'lanishi natijasida aylanma mablag'larning bir qismi chetlanishiga olib kelmoqda va bu korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sirini keltirib chiqarmoqda. Ikkinchidan, jo'natilgan tovarlar uchun mablag'lar o'z vaqtida kelib tushmasligi natijasida QQS solig'i bo'yicha boqimanda miqdorlari ko'payib bormoqda. Ushbu muammo o'z – o'zidan keyingi uchinchi muammoni keltirib chiqarmoqda, boqimanda miqdorlarga nisbatan hisoblanadigan penya miqdori yuqoriligi iufayli hisoblanayotgan penyalar jarima sifatida korxonalar moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tadbirkorlik faoliyatiga g'ov bo'lmoqda. To'rtinchidan, mol etkazib beruvchilardan olingan xomashyo materiallar uchun hisobvaraqlar – fakturalarda ko'rsatilgan QQS miqdorlarining mol etkazib beruvchiga mablag' o'tkazilish davridan qat'iy nazar hisobot davrida hisobga o'tkazilishi ko'pgina korxonalarda QQS hisob - kitobi bo'yicha salbiy qoldiq vujudga kelishi va buning natijasida budjetga tushumlarni keskin kamayishi, hatto katta miqdordagi to'lanmagan soliq miqdorlarining korxonalarga qaytarilish hollari yuz bermoqda. Bu holat ayniqsa eksportga mahsulot chiqaruvchi korxonalarda ko'p uchraydi, chunki bu korxonalar QQSni "0" darajali stavkada to'laydilar. Beshinchidan, hozirda respublikamizda QQS bo'yicha imtiyozlar turlarining juda ko'pligi hamda uch xildagi alohida soliqqa tortish tartibining joriy etilishi natijasida mahsulotni ishlab chiqarilishidan to iste'molchiga etib borguncha bo'lgan bosqichlarda o'rtadagi bo'g'inga ushbu imtiyozga ega korxonalarning tushib qolishi keyingi

bo'g'indagi korxonaning QQSni haqiqatda ta'rifda keltirilganidek qo'shilgan qiymatdan emas, sotilgan tovarning to'liq qiymatidan to'lashiga sabab bo'lmoqda.

Ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash majburiyati jo'natilgan mahsulot yoki bajarilgan ish va xizmatlar uchun mablag' kelib tushgan paytda amalga oshirilishi hamda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan aylanmadan foydalanishga sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisobvaraqlar – fakturalar bo'yicha hisobot davrida haqiqatda mol etkazib beruvchiga to'langan QQS miqdori hisobga o'tkazilishi yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishda o'z samarasini berishi mumkin. Chunki, korxona haqiqatda mablag'i kelib tushgan tovarlarning realizatsiyasidan QQSni to'lashi korxona aylanma mablag'larining boshqa yo'nalishga chetlashishining oldini olishga imkon berishi bilan bir qatorda korxonaning QQS bo'yicha boqimanda miqdorining oshishi va unga nisbatan katta miqdorda ustamalarning hisoblanishini cheklaydi. Bu albatta korxonaning sog'lom moliyaviy faoliyat ko'rsatishiga asos bo'ladi.

3) Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi korxonalar sotib olgan xomashyo, materiallari uchun to'lagan yoki to'lashi lozim bo'lgan QQS miqdori to'liq, qachon ishlab chiqarishga ishlatilishidan qat'iy nazar xomashyo olingan paytda hisobga o'tkaziladi. Ishlab chiqarish ayniqsa, sanoat mollari ishlab chiqarish korxonalarida bunday xomashyo, materiallarning hisobga o'tkazilishi budjetga QQS bo'yicha yo'qotishlarni keltirib chiqarmoqda. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan materiallarning tabiiy yo'qotish me'yori mavjud bo'lib, ushbu me'yordan ortiqcha yo'qotishlar ham juda ko'p uchrab turadi. Ushbu me'yordan ortiqcha yo'qotishlar foyda solig'ini hisoblashda qayta qo'shib undan foyda solig'i undiriladi, lekin tabiiy yo'qotish me'yoridan ortiqcha yo'qotilgan materiallar uchun hisoblangan QQS, ushbu material sotib olingan paytda to'liq hisobga o'tkaziladi yoki sodda qilib aytganda byujet tomonidan qoplanadi. Budjet tomonidan qoplangan miqdordan davlat zarar ko'radi, chunki tabiiy yo'qotish me'yoridan ortiqcha yo'qotish bo'lgan xomashyo, material QQS bo'yicha hech qanday qo'shimcha soliqqa tortish aylanmasini keltirib chiqarmaydi. Ushbu

keltirilgan mulohazalar bo'yicha quyidagi taklifni bildirmoqchimiz. Tabiiy yo'qotish me'yoridan ortiqcha yo'qotish bo'lgan xomashyo, materiallar uchun hisobga o'tkazilgan miqdor, ortiqcha yo'qotish bo'lgan hisobot davrida chegirib tashlanishi lozim. Bir tomondan budjetga QQS bo'yicha tushumlarning kamayishini oldini olsa, ikkinchi tomondan korxonalarning xomashyo, materiallarni tabiiy yo'qotish me'yoridan ortiqcha behuda yo'qotishlarga yo'l qo'ymaydi.

4) Muayyan tarzda samara bermayotgan imtiyozlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, Soliq kodeksining 208-moddasi 28 bandiga asosan o'zi etishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini realizatsiya qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. 1999 yildan boshlab qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun soliqqa tortishning alohida tizimi yagona yer solig'i joriy qilingandan keyin ushbu imtiyozning amaliy ahamiyati deyarli yo'qolgan. Hozirgi vaqtda esa bu imtiyoz faqat imtiyozlar sonining ko'pligini izohlash uchun xizmat qilayotgan bo'lishi mumkin xolos. Shunday qilib, ushbu keltirilgan imtiyozning olib tashlanishi hech qanday QQSni hisoblanish yoki undirilish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmaydi. Bizningcha, bu imtiyozning o'rniga boshqa imtiyozning qo'llanishi, ya'ni eksport qilishga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarilishi uchun chegaradan olib kiritilayotgan moddiy resurslar uchun import bo'yicha QQSdan imtiyozning berilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, bu moddiy resurslardan import qilinayotgan QQSning undirilishi va u tayyor mahsulot sifatida eksport qilinayotganda nolli stavkaning qo'llanishi, hukumatning bu cho'ntagidan olib boshqa cho'ntagiga solish bilan barobar, faqatgina oraliqda ortiqcha hisob – kitoblar, bank o'tkazishlari amalga oshirilgani qoladi, xolos.

5) Hozirgi paytda, davlatimiz soliq qonunchiligiga asosan yuridik shaxslardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i ikkita, ya'ni "20" va "0" foizli stavkalar bilan soliqqa tortiladi. "0" foizli stavka tovarlarni eksport qilish, xalqaro yo'nalishda tashishlarga, aholiga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlarga, «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga, chet el diplomatik

vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nisbatan qo'llanilsa, "20" foizli stavka, imtiyozlarni hisobga olmaganda, qolgan barcha turdagi faoliyat turlariga qo'llanib kelinmoqda. Qo'shilgan qiymat solig'ining bilvosita soliq turlaridan biri va uning haqiqiy to'lovchisi aholi ekanligini hisobga olsak, ushbu "20" foizli stavkaning barcha turdagi faoliyat turlariga nisbatan qo'llanilishi aholining past tabaqali qatlami uchun moliyaviy muammolarni tug'dirmoqda.

Ushbu holat yuzasidan bizning taklifimiz shundan iboratki, aholi iste'moli uchun birinchi darajali bo'lgan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini soliqqa tortishda biroz pasaytirilgan soliq stavkasini qo'llashni taklif qilgan bo'lardik. Chunki, jaxonning ko'pgina davlatlarida ham, xususan Rossiya Federatsiyasining soliq qonunchiligiga ko'ra aholi iste'moli uchun birinchi darajali bo'lgan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan soliq stavkasi (10 foiz) qo'llanib kelinmoqda.

6) Bilamizki qo'shilgan qiymat solig'ining xuquqiy to'lovchisi korxonalar bo'lgani bilan haqiqiy to'lovchi oddiy aholi hisoblanadi. Shu sababli, ushbu soliq turini qo'shilgan qiymat solig'i emas, iste'mol solig'i deb nomlansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Ushbu soliqning hisoblanish mexanizmiga e'tibor qaratsak, hozirgi kundagi nomlanishi ham mantiqiy jihatdan to'g'ri kelmaydi, chunki Soliq kodeksiga ko'ra soliqqa tortish obyekti qo'shilgan qiymat emas, oborot, ya'ni yalpi tushum hisoblanadi.

3-bob bo'yicha xulosa

Bitiruv malakaviy ishining so'nggi bobida qo'shilgan qiymat solig'i takomillashtirish masalalari bo'yicha, soliqning undirish mexanizmini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari tadqiq qilingan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirish sharoitida soliqlar davlat budjeti daromadlarining asosiy manbayi bo'lishi bilan bir qatorda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, iqtisodiyotning ustuvor sohalarni moliyaviy

qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida muhim instrumentlardan biri hisoblanadi. Bunda, soliq tizimida etakchi o'ringa ega bo'lgan va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda g'oyat muhim fiskal vazifani bajarib kelayotgan egri soliqlarning ahamiyati g'oyat yuksakdir. Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan choralar ham muhim rol o'ynaydi. Chunki, soliqlar xazinani to'ldiruvchi asosiy manbadir. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida mamlakatda mavjud soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimini rivojlantirishda uning rag'batlantirish vazifasidan samarali foydalanishni talab etiladi. Bunda soliqlar vositasida korxonalarning faoliyatini rag'batlantirish va natijada ular iqtisodiy faolligini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki korxonalarning iqtisodiy faolligining rivojlanishi bir tomondan, uning iqtisodiy yuksalishiga, daromadlarining oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, soliq to'lovchi sifatida soliqqa tortiladigan bazaning kengayishiga olib keladi va bu oxir oqibatda budjet daromadlarining oshishini keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda egri soliqlar davlat budjetining daromadlar qismida salmoqli o'rinlarni egallaydi. Shu sababli egri soliqlarning hisobini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Demak, hozirda, mamlakatimiz soliq tizimi oldida bozor munosabatlarini to'laqonli shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish bilan bir qatorda, davlat budjetini mablag'lar bilan ta'minlash hamda ustivor yo'nalishdagi iqtisodiy faoliyatni soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida, ayniqsa uning eng muhim turlaridan biri bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tartibini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Qo’shilgan qiymat solig’i va uni prognoz qilish usullari” mavzusidagi mazkur bitiruv malakaviy ishi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- qo’shilgan qiymat solig’i egri soliqlar tarkibiga kirib, tarixiy shakllangan soliqdir;

- mamlakatimizda qo’shilgan qiymat solig’ining amal qilish tartibi, uning huquqiy asoslari ishlab chiqilgan;

- tashqi savdoga nisbatan betarafligi sabab, tovarlarni ichki ishlab chiqarish va sotish yuzasidan aralashuvlarni keltirib chiqarmaydi;

- ko’p mehnat yoki sarmoya talab qiluvchi ishlab chiqarish tarmoqlariga, mulkchilik shakliga ta’sir qilmaydi;

- davlat budget daromadlarida alohida o’ringa ega, ishonchli va tushunish uchun nisbatan yengil soliqqa tortish vositasi;

- qo’shilgan qiymat solig’i pirovard maqsad tamoyili bilan bevosita bog’liq bo’lishi kerak. Bu import tovarlarga qo’shilgan qiymat solig’ining ichki mahsulotga soliqdan farq qilmasligi kerakligini, eksport tovarlarining qo’shilgan qiymat solig’iga tortilmasligini bildiradi. Shuningdek, bu soliq turi soliq to’lovchilarning tushunib etishi uchun sodda va engil bo’lishi kerak;

- qo’shilgan qiymat solig’idan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir ko’rsatishda, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berishda hamda byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish lozim;

- qo’shilgan qiymat solig’i tushumini prognozlashtirishda “to’g’ri hisob-kitob” va “o’tgan davr ko’rsatkichlarini statistik qayta ishlash” usullaridan foydalanish mumkin;

- mikroiqtisodiy ko’rsatkichlar asosida prognoz qilish usulida soliqlar bo’yicha kutilayotgan tushumlar hisob-kitobi uchchala darajada, ya’ni tuman, hudud va respublika miqyosida amalga oshiriladi;

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni keltiramiz:

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmining soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish va mazkur soliq bo'yicha aholining zarur birinchi iste'mol tovarlariga pasaytirilgan stavkalar o'rnatilishi lozim. Lekin pasaytirilgan stavkani belgilashning o'zi bilan masalani hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun barcha pasaytirilgan QQS stavkalari qo'llaniladigan davlatlardagi kabi stavkalar o'rtasidagi farq davlat budjetidan qoplanishi lozim. Shundagina bu imtiyoz amalda ishlaydi va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad amalga oshadi;

2. Amaldagi Soliq kodeksiga muvofiq nashriyotlar, gazeta va respublikamizning matbuot va kitob savdosi korxonalarining asosiy faoliyatiga doir mahsulotlar va xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. Lekin xorijiy davlatlarda esa gazeta va jurnallarga pasaytirilgan stavka qo'llaniladi. Bizning respublikamizda jurnallarning ayrim turlari, masalan reklama nashriyotlari ko'p bo'lgan jurnallarga kelajakda qo'shilgan qiymat solig'ini belgilangan stavkaga nisbatan pastroq bo'lgan, masalan 15 foizli stavkada soliqqa tortish tavsiya etiladi;

3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha taqdim etilayotgan imtiyozlar va noqonuniy hatti-harakatlarga nisbatan qo'llanilayotgan moliyaviy sanksiyalar hamda jarimalar miqdorini amaldagi jarima miqdoriga nisbatan yuqoriroq miqdorda chegara qo'yish orqali soliq to'lovchilarni berilgan imtiyozlardan tushgan mablag'larni maqsadli foydalanishga undash;

4. QQS ning yuklab jo'natish usulidan to'liq foydalanishda xaridorlar uchun iqtisodiy noqulay holatlar vujudga kelmoqda, ya'ni biz bilamizki, xaridor ish va xizmatlar uchun 15% lik oldindan to'lov amalga oshirib, qolgan qismini belgilangan muddatda amalga oshiradi. Bundan xaridorlar iqtisodiy tomondan ustuvor moliyaviy qulayliklarga ega bo'lyapti. Bunday vaziyatni yaxshilash yoki qisman yumshatish uchun quyidagi taklif amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bizning fikrimizcha, xarid qilib olingan tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar va ishlar uchun to'lov ulushlari qanday bo'lsa shunday holatda qoldirishni

maqsadga muvofiq, ayni shu davrda, ya'ni qolgan 85% to'lov amalga oshirilgunga qadar sotuvchilar uchun QQS bo'yicha soliq tanaffusi berishni yo'lga qo'yish va shu davr mobaynida aybona va jarimani undirishni bekor qilish lozim.

5. Bizning fikrimizcha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llanilishi iste'molchilarning tovarlarni tanlashiga ta'sir qilmasligi kerak, bu soliq kreditining qisqa muddatda qaytarilishini, qo'shilgan qiymat bazasining barcha iste'mol tovarlariga, ya'ni xom ashyo, oraliq mahsulotlar, ishlab chiqarish maqsadidagi tovarlarga taalluqli bo'lishini taqozo etishi;

- qo'shilgan qiymat solig'i pirovard maqsad tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak. Bu import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ining ichki mahsulotga soliqdan farq qilmasligi kerakligini, eksport tovarlarining qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmasligini bildiradi. Shuningdek, bu soliq turi soliq to'lovchilarning tushunib yetishi uchun sodda va yengil bo'lishi kerak.

- qo'shilgan qiymat solig'idan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatishda, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga imkoniyat yaratib berishda hamda budjet daromadlarini shakllantirish vositasi sifatida foydalanish lozim.

O'ylaymizki, bu takliflar qo'shilgan qiymat solig'ini budjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini yanada oshirishga hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2015
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2015
3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 1997 yil 29 avgust
4. O'zbekiston Respublikasining “Soliq maslahati to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 2006 yil 21 sentyabr
5. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 2012 yil 2 may
6. O'zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 2012 yil 26 aprel
7. O'zbekiston Respublikasining “Soliq va budget siyosatining 2012 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi Qonuni. //Xalq so'zi, 2011 yil 30 dekabr
8. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 29 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-345-son Qonuni. //Xalq so'zi, 2012 yil 29 dekabr
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 15 apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2164-sonli qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi 4609-sonli Farmoni

- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 8 avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksportini qo'llab quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-sonli Qarori
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2699-sonli Qarori (2016 yil 27 dekabr).
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2455-sonli Qarori (2015 yil 22 dekabr).
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).
- 15.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda
"O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2099-sonli Qarori
- 16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda
"O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori
- 17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda
"O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori
- 18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda
"O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli Qarori
- 19.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda
"O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy

ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1245-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiasarlari va ma'ruzalari:

20. Mirziyoyev Sh. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.
21. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
22. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
23. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
24. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b
25. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2014. -64 b.
26. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. –T.: "O'zbekiston", 2013. -384 b.
27. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. –T.: "O'zbekiston", 2013. -80 b.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari:

28. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.
29. Abdukarimov V. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010. –384 b.
30. Алиев Б., Абдулгалимов А., Алиев М. Теория и история налогообложения. Учебное пособие. –М.: “Вузовский учебник”, 2011. – 240 с.
31. Алиев Б. и другие. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Финансы и кредит”, 2008. –448 с.
32. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”. 2002. –380 с
33. Александров И. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2006. –318 с.
34. Gadoev E., Kuzieva N. O'zbekistonning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli va ahamiyati. O'quv-uslubiy qo'llanma –T.: “EL PRESS”, 2011. –204 b.
35. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2005. –544 b.
36. Vaxabov A., Toshmatov Sh., Haydarov N. Moliya savodxonligi asoslari. – T.: “Bakteriya-press”, 2013. -288 bet
37. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. –448 b.
38. Nigmadjanov U. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. -328 s.
39. Soliev A. Korxona iqtisodiyoti. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. -368 b.
40. Malikov T., Vahobov A. Moliya. Darslik. –T.: “NOSHIR”, 2010. –712 b.

41. Mirzamaxmudov M. Davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. -112 b.
42. Xabibullaev I., Djaylavov A. Soliq tizimida axborot texnologiyalari. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. -220 bet
43. Usmanova M. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish muammolari. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. -144 b.
44. Meyliev O. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o'ri. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. -136 b.
45. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abdurahmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2009. –184 b.
46. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2007. –128 b.
47. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. “Fan va texnologiya” 2007.-60-bet
48. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NOSHIR”, 2012. –236 b.
49. Toshmatov. Sh Qo'shilgan qiymat solig'i. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 2004. –228 b.
50. Jo'raev A., Meliyev O., Safarov G'. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2004. –211 b.
51. Jo'raev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. Monografiya. –T.: “Fan nashriyoti”, 2004. –242 b.
52. Тарасова В., Владика М., Саприкина Т., Семикина Л. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Кнорус”, 2012. –488 с.
53. Дорофеева Н., Брилон А., Брилон Н. Налоговое администрирование. Учебник. –М.: “Дашков и К”, 2010. –296 с.
54. Черник Д.Г. Налоги и налогообложения: Учебник. –М.: “ЮНИТИ”, 2010. –310 с.

55. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012. –899 с.
56. Скворцов О. Налоги и налогообложение. Практикум. Учебное пособие. –М.: “Академия”, 2010. –208 с.
57. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “ЕКСМО”, 2010. –240 с.
58. Soliqqa oid qonun hujjatlaridagi yangiliklar. –T.: “NORMA”, 2012. –480 b.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar):

59. Elmirzaev S., Qurbanqulova N. Korxonalarda soliqni budjetlashtirishning ahamiyatli jihatlari. //Moliya. 2013, №4. –96 b.
60. Shirinov S. Soliq to'lovchilarning daromadlari va ular asosida soliqqa tortish bazani aniqlash usullari. //Moliya. 2013, №4. –100 b.
61. Umarova N., Odilova D. Soliq tizimini taomillashtirish – iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi. //Moliya. 2013, №4. –105 b.
62. Qashqadaryi viloyati Qarshi tuman DSI ma'lumotlari

5. Internet saytlari:

- 63.<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı
- 64.<http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
- 65.<http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi
- 66.<http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- 67.<http://www.norma.uz> – “Norma hamkor” mas'uliyati cheklangan jamiyati
- 68.<http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
- 69.<http://www.ziynet.uz> - Jamoat axborot ta'lim tarmog'i